

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

AXUNOV OYBEK MADAMINOVICH

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA
MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI VA
XARAJATLARINI SAMARALI BOSHQARISH
MASALALARI”**

5340600 - “Moliya” - ta’lim yo‘nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. O.Komolov

« ____ » _____ 2015 y.

Ilmiy rahbar: _____ i.f.d., prof. T. Malikov

TOSHKENT - 2015

M U N D A R I J A

	KIRISH	3
I BOB.	DAVLAT BYUDJETNING TARKIBI SIFATIDA MAHALLIY BYUDJETLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI, NAZARIY VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI	8
1.1	Byudjet tizimini isloh qilishda mahalliy byudjetlar faoliyatini o'rganishning ob'ektiv zarurligi, nazariy masalalari.....	8
1.2	Mahalliy byudjetlar faoliyatini tashkil etish va boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	23
	I-bob bo'yicha xulosalar.....	35
II BOB.	MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH VA XARAJATLARINI REJALASHTIRISHNING HOZIRGI AMALIYOTI TAHLILI.....	36
2.1	Mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllantirishning hozirgi holati tahlili	36
2.2	Mahalliy byudjetlar xarajatarini rejalashtirishning hozirgi holati tahlili	45
	II bob bo'yicha xulosalar.....	59
III BOB.	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BYUDJETLARNING DAVLAT IJTIMOIIY SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH YO'LLARI..	62
3.1.	Ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda mahalliy byudjetlarni ahamiyatini oshirishning xorij tajribasi	62
3.2.	Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy soha xarajatlaridan oqilona foydalanishini takomillashtirish yullari.....	71
	III bob bo'yicha xulosalar.....	76
	XULOSA.....	79
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	82

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi davlatining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida maxalliy budjetlarning Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli yanada oshmoqda. O'zbekistonda olib borilayotgan isloxatning chuqurlashishi maxalliy budjetlarni xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yanada oshirib, moliya-budjet sohasidagi xuquqlarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustaxkamlashni talab qiladi.

Bu boradagi respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator chora-tadbirlar xususida Prezidentimiz I.A.Karimov o'z ma'ruzalarida: "Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflyatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi¹¹ deb ta'kidladilar. Bugungi kunda mamlakatimizda byudjet va ijtimoiy siyosatning uyg'unligini ta'minlash maqsadida moliya tizimining sohalarini, jumladan byudjet tizimini va ayniqsa, uning tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu holat davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosini ta'minlash, shuningdek hududiy

¹¹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.– T.: "O'zbekiston", 2015. 71 b

iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olishni hamda mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarning kengayib borishi sharoitida ularning moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash uchun zamin yaratadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi davrida hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy byudjetlarning ahamiyati yanada ortmoqdaki, ushbu maqsadda mahalliy byudjetlarni daromadlar bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, yurtboshimizning 2013 yil 19 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida iqtisodiyot sohasidagi mavjud muammolar ham har tomonlama tahlil etildi hamda 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlar va dasturiy vazifalarga e'tibor qaratildi. Hukumat, vazirlik va idoralar oldiga har bir hudud uchun ustuvor tarmoqlarni aniqlash, tabiiy xom-ashyo resurslaridan yanada to'liqroq foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini, ayniqsa, qayta ishlash tarmoqlari, xizmatlar sohasi, ijtimoiy infratuzilmani jadal va mutanosib rivojlantirgan holda, hudud va mintaqalarni kompleks rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Respublikamizda 2013-yilda barqaror davlat byudjetini shakllantirish maqsadida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, mahalliy byudjetlarining daromad qismini mustahkamlash butun soliq tizimini soddalashtirish va uning oshkoraligini ta'minlab, soliq yuki darajasining oshmasligi ta'minlanib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan bu ko'rsatkich 21,3 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan bo'lsada, "2014 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, avlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi"².

2 Karimov I.A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi".T; O'zbekiston, 2014, 64 b

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlarning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati, daromadlari tarkibi va bazasini mustahkamlash yuzasidan xulosalar berishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini o'rganish;
- mahalliy byudjetlarning xarajatlari ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini o'rganish;
- mahalliy byudjetlarni boshqarishda davlat organlarining vakolatlarini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini o'rganish;
- mahalliy byudjetlar daromadlarini davlat byudjetida tutgan o'rnini tahlil qilish;
- mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlarini tahlil qilish;
- mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlarini tahlil qilish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlar va ularning daromadlar bazasini mustahkamlash yo'llarini ko'rib chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida mahalliy byudjetlar va ularning daromadlari bazasini shakllantirish xarajatlarini rejalashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar maydonga chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari hamda Yunusobod tuman mahalliy byudjetining faoliyati belgilab olinadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslarini O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va xorijda hamda respublikamizda ma'lum olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Ishni yozishda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyruqlaridan, yo'riqnomalaridan hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi vazifalar haqidagi ta'limotlari va 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari 2015 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2015 yil 16 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2012 yil 20 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” hamda “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” 2011 yil 21 yanvarda bo'lib o'tgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida hamda “Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi “Asosiy vazifamiz–vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” ma'ruzalarida belgilab berilgan asosiy ustuvor vazifalar bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari nomli asarlari nazariy asos qilib olingan.

Bitiruv malakaviy ishda oldinga surilgan ilmiy-amaliy tusdagi qoida, g'oya, fikr-mulohaza, xulosa va takliflardan: yangi tahrirdagi davlat byudjetini moliyalashtirish strategiyasini belgilash; byudjet siyosatini isloh qilish va

takomillashtirish va mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan keyingi ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

«Moliya», «Davlat byudjeti» kursi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda foydalanilish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining tarkibi tuzilmaviy rejasiga ko'ra, ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish qismidan, uch bobdan, hulosasi va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. DAVLAT BYUDJETINING TARKIBI SIFATIDA MAHALLIY BYUDJETLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI, NAZARIY VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Byudjet tizimini isloh qilishda mahalliy byudjetlar faoliyatini o'rganishning ob'ektiv zarurligi, nazariy masalalari

Budjet - davlatning oldida turgan maqsad va vazifalarini moliyaviy ta'minlashga mo'ljallangan pul mablag'lari fondini shakllantirish va xarajat qilish shaklini aks ettiradi. Budjetga mamlakat moliyaviy tizimida boshqaruvchilik holati tegishlidir. U umumdavlat moliyaviy resurs fondini shakllantirish va foydalanish bilan bog'lik bo'lgan, bir tomondan, davlat o'rtasidagi taqsimlash munosabatlarining bir qismini, ikkinchi tomondan korxonalar va aholi o'rtasidagi taqsimlash munosabatlarining bir qismini anglatadi.

Davlat budjeti, uning daromad va xarajatlari jamiyatning iqtisodiy kategoriyalari bilan chambarchas bog'liq. Chunki davlat budjeti jamiyatda yaratilgan ijtimoiy maxsulot qiymatining taqsimlanish jarayonida o'zining moddiy shakliga ega bo'ladi.

“Budjet munosabatlari” - bu jamiyat iqtisodiy tuzilishining ajralmas qismidir; uni amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarni bajarishi uchun zaruriy moddiy-moliyaviy bazani shakllantirish bilan ob'ektiv ravishda aniqlanadi”.

Davlat budjeti orqali jamiyatda yaratilgan yalpi ichki maxsulot qayta taqsimlanadi. yulpi ichki maxsulotning qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar: maorif, sog'liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamni moddiy jixatdan qo'llab quvvatlash, xavfsizlik, chegaralar daxlsizligini saqlash va favqulodda holatlar uchun saqlanadigan davlat zaxiralarining mavjud bo'lishi zarurati tufayli kelib chiqiladi. Shuningdek, davlat budjet orqali jamiyatning ijtimoiy

takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qilishning moliyaviy dastaklariga ega bo'ladi

Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida davlat hokimiyatini iqtisodiy imkoniyatlarining moliyaviy asoslarini yaratadi.

Budjet - murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, chunki uning moddiy asosini kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil qiladi.

Budjet munosabatlari davlat bilan xo'jalik sub'ektlari hamda aholi o'rtasidagi qiymat taqsimlanish jarayonida paydo bo'luvchi moliyaviy munosabatlardir. Bunday moliyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, birinchidan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimlash bosqichida vujudga keladi, ikkinchidan, markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va undan davlat manfaatlari yuzasidan foydalanishga yo'naltiriladi. Davlat manfaatlari esa - bu ijtimoiy manfaatlar hisoblanadi. Budjet davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida o'ziga xos ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Budjet munosabatlari ob'ektiv xarakter kasb etadi, chunki budjet davlat va unga tegishli funksiyalarni amalga oshirishda muhim moddiy-moliyaviy baza shakllantirilishi uchun ob'ektiv zaruriyatdir. Shu bilan birgalikda budjet munosabatlari bazis elementi hisoblanadi. Takror ishlab chiqarish jarayonida budjet munosabatlari ularga muvofiq keluvchi moddiy shaklni oladi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida budjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Budjetning moliyaga xos sifat belgilari birinchidan, ijtimoiy maxsulot qiymatining taqsimlanish jarayonida, aniqrog'i, qayta taqsimlanishi jarayonida vujudga kelib, pul munosabatlarining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ikkinchidan, budjet markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanishga yo'naltirilgan fond hisoblanadi. Davlat budjeti - bu tegishli darajadagi (markaziy yoki maxalliy) davlat boshqaruv organi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan moliyaviy reja bo'lib, unda davlatning o'z funksiyalaridan kelib chiqib amalga

oshiradigan asosiy xarajatlari hamda ularni moliyalashtirish uchun zarur daromadlar o'z aksini topadi.

Turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini ifodalaydigan, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlar majmuiga budjet tizimi deyiladi.

Ko'pchilik hollarda, soddaroq tarzda, budjet tizimi deyilganda esa, mamlakatdagi mavjud budjetlar majmui tushuniladi.


U yoki bu mamlakatning budjet tizimi ikki yoki uch bo'g'inli bo'lishi mumkin. Unitar davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda budjet tizimi ikki bo'g'indan (markaziy va maxalliy budjetlar), federativ davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda esa uch bo'g'indan (markaziy budjet, federasiya a'zolari budjetlari va maxalliy budjetlar) iborat bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni va budjet munosabatlarini islox qilish evolyutsion yo'l bilan, bosqichma-bosqich, ijtimoiy xayotning boshqa tarmoq va sohalari bilan o'zaro aloqadorlikda amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda barcha soha va tarmoqlarda, davlat boshqaruvinng turli pog'onalarida bo'lgani kabi, budjet-moliya sohasida ham chuqur isloxatlar kechmoqda.

Moliya-budjet isloxatlarini o'tkazish jarayoni, avvalo, maxalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga ko'proq mustaqillik berishni, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni xal etishda ular rolini oshirish va Shu bilan bir vaqtda ular moliyaviy manbalarini mustahkamlash, butunlay yangi moliya-budjet va soliq mexanizmini yaratish, budjetlararo munosabatlarni tartibga solish va barcha darajadagi budjetlar samarali ijrosini ta'minlashning uslubiyoti va tamoyillarini aniklashni o'z ichiga oladi.

Bu jarayonda maxalliy budjetlarni boshqarishning, maxalliy budjetlar moliyaviy manbalarini mustahkamlashning oqilona usullarini yaratish va takomillashtirish masalalari aloxida o'rin egallaydi.



Maxalliy budjetlar- davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, Shahar pul mablag'lari jamg'armasi bo'lib, ikki pog'onali budjet tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Maxalliy budjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Ular xaqida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- maxalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etuvchi pul fondlarini shakllantirish;
- bu pul fondlarini hududiy iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar o'rtasida qayta taqsimlash va ishlatish;
- maxalliy hokimiyatga bo'ysinuvchi korxona, tashkilot va muassasalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat olib borish.

Maxalliy budjetlar tarkibiga kiruvchi budjetlar quyidagi budjetlarni o'z ichiga oladi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti - Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetini hamda respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetini;
- Viloyat budjeti - umumviloyat budjetini hamda viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetini;
- Tumanlarga bo'linadigan shahar budjeti - umumshahar budjetini hamda Shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini;
- Tarkibida shaharlari bo'lgan tuman budjeti - umumtuman budjetini hamda tuman bo'ysunuvidagi shaharlar budjetlarini.

huquqiy jixatdan maxalliy budjetlar budjet yili davomida daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, anik maqsadlar uchun mo'ljallangan xarajat yo'nalishlari aks ettiriladigan moliyaviy xujjatdir.

Maxalliy budjetlar orqali maxalliy xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jixatdan rivojlantirish moliyaviy manbalar bilan ta'minlab boriladi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining barcha daromadlari tarkibida maxalliy budjetlar daromadlari o'rtacha 42-46 foizni tashkil qiladi. Shu o'rinda Shuni ta'kidlash joizki, budjet tizimi bo'yicha amalga oshiriladigan xarajatlarning esa 54-55 foizi

mahalliy budjetlar hisobiga to'g'ri keladi. Maxalliy budjetlar xarajatlarining keyingi yillarda ildamroq o'sib borishi ularning davlat budjetidagi salmog'ining ham oshib borishiga olib kelgan.

Avvalgi yillarda asosan respublika budjetidan moliyalashtirib kelingan kadrlar tayyorlash, hududiy ahamiyatdagi davlat kapital quyilmalarini moliyalashtirish, 1994 yildan boshlab aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining keskin oshib borishi va bu turdagi xarajatlarni asosan maxalliy budjetlar hisobidan moliyalashtirish davlat budjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar tarkibida maxalliy budjetlar salmog'ining oshishiga olib keldi.


Mahalliy budjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi xisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining deyarli yuz foizi maxalliy budjetlar hisobidan moliyalashtiriladi.

Mahalliy budjetlarga xos bo'lgan xususiyatlarning namoyon bo'lishi, ulardan milliy daromadni hududiy darajada taqsimlash va qayta taqsimlash hamda bu jarayonlarni nazorat qilish quroli sifatida foydalanish faqat inson faoliyati jarayonidagina mumkin bo'ladi.

Bu budjet mexanizmida o'z aksini topadi. Budjet mexanizmi davlat budjet siyosatini amalga oshirishning dastak va vositalari yig'indisi bo'lib, davlat tomonidan tashkil etiladi va budjet munosabatlarini davlat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Hududiy iqtisodiyot va hududdagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solishda maxalliy davlat hokimiyati organlari aloxida o'rin egallaydi.

1993 yil 2 sentyabrda qabo'l qilingan "Maxalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi № 913-XII-son O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, "Viloyatlar, tumanlar va Shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan Shaharlardan, Shuningdek Shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq depo'tatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari" hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlarining tuzilishi⁴

⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari

Xalq depo'tatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Makkamasi qabo'l qilgan xujjatlar, yuqori turuvchi xalq depo'tatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi. Xalq depo'tatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashish asosida o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar. Yuqoridagi qonunga muvofiq, viloyat, tuman, Shaharning moliyaviy resurslarini budjet mablag'lari, budjetdan tashqari fondlar, anik maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, Shuningdek respublika (viloyat, Toshkent shahri) budjetidan ajratilgan subvensiyalar va dotasiyalar tashkil etadi.

Viloyat, tuman, Shaharning moliyaviy resurslari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan birgalikdagi dasturlarni, Shu jumladan hududlararo dasturlarni pul bilan ta'minlash uchun boshqa viloyatlar, tumanlar, Shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning moliya resurslari bilan shartnoma asosida birlashtirilishi mumkin.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davridan boshlab to hozirgi kungacha har bir sohada iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmokda. Ayniqsa, byudjet sohasida olib borilayotgan islohotlarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal byudjetga ega ekanligi bilan xam ifodalanadi. Respublikamiz mustaqillikqa erishganidan so'ng mana shu o'tgan davr ichida chuqur iqtisodiy siyosat negizida barqaror moliyaviy tizimni, shuningdek, uning asosini tashkil etuvchi mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijro etish sohasida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakat byudjetining tuzilishi birinchi navbatda davlat tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Unitar tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tizimi ikki

bo'g'indan, ya'ni markaziy va mahalliy byudjetlardan, federal tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tizimi uch bo'g'indan, federal byudjet, hududlar byudjeti va mahalliy byudjetlardan iboratdir.

Mahalliy byudjetlar byudjet tizimining quyi bo'g'ini sifatida davlat moliya tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar daromadlari bo'lib mahalliy soliqlar va yig'imlar hisoblansa, mahalliy byudjet xarajatlarida asosiy o'rinni ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari egallaydi.


O'zbekiston Respublikasida byudjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarning hukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, mahalliy moliya organlarining byudjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida byudjet xarajatlarini to'g'ri va okilona tarzda sarflanishi va byudjet tushumlarining yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari keltirish joizdir: "Joylarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot muammolarini muvaffaqiyatli va moliyaviy inqrozlarsiz hal etishda mahalliy byudjet daromad bazasining barqarorligini, shu jumladan, ulardagi investitsion, soliq, valyuta imkoniyatlarining bir tekis taqsimotini talab etadi va bu nisbatdoshlikda hududlarning iqtisodiy faolligi rag'batlantirilishi lozim"⁵.

Mahalliy byudjetlar byudjet tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etar ekan, avvalo byudjet tizimiga ta'rif berib o'tish lozim, byudjet tizimi barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o'rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi⁶.

⁵ I.A.Karimov. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish – asosiy vazifamiz. «Qishloq hayoti» gazetasi. 2004 yil., №20 2-b.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 2-bob 6- modda, 2013 yil 27 dekabr


Mahalliy budjet vazifalari⁷

Mahalliy budjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi bo'lib hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoya o'lish xarajatlarining qariyb 100 foiziga yaqini mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlatining mustaqillikka erishishi sari yo'l tutishi davrida, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi yo'lida hududlarning iqtisodiy rivojlanishida hamda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mahalliy budjetlarning roli yanada oshdi.

Mahalliy budjet daromadlari nisbatan mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalar, ular tomonidan mahalliy soliq va yig'implarni yig'ib olish imkoniyati, hamda yuqori davlat organlarining hududlarga moliyaviy yordam bera olish imkoniyati, hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, davlat tomonidan olib borilayotgan moliya-budjet siyosati bilan bevosita bog'liqdir.

³ Srojiddinova Z.X. "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi" darslik 2010-yil



⁸ Srojiddinova Z.X. "O'zbekiston Respublikasi budget tizimi" darslik 2010-yil.

Moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari xarajatlariga ularning tasdiqlangan parametrlari doirasida birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmonlar sotib olish xarajatlari bo'yicha byudjetdan ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish yoki kamaytirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgandan keyin amalga oshiriladi.


Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlariga tasdiqlangan parametrlar doirasida uning ijrosi jarayonida qonun hujjatlari asosida o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan kiritiladi va uning axborot tizimida hisobga olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining har yili O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar parametrlarini taqsimlash, rejalashtirish va ijrosini ta'minlash masalalari yuzasidan 1-son buyrug'i qabul qilinadi.

Unga muvofiq byudjetining parametrlarini qonun doirasida ijro etilishini ta'minlash maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari boshliqlari hamda shahar, tuman moliya bo'limi mudirlarining zimmasiga quyidagilar yuklatiladi⁹:

- hududlardagi soliq organlari bilan hamkorlikda mahalliy byudjetlarning har yili tasdiqlangan daromadlarining yillik va choraklik parametrlarini soliq manbalari va barcha hududlar bo'yicha to'laqonli bajarilishini ta'minlab borish, tushumlarni doimiy ravishda tahlil va prognoz qilish;
- mahalliy hokimiyat organlariga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliq va yig'imlardan byudjetga boqimanda qarzдорliklarini qisqartirish, daromadlarning tasdiqlangan ko'rsatkichlarini muttasil bajarilishini ta'minlash, hududning soliq

⁹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining «O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi Davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar parametrlarini taqsimlash, rejalashtirish va ijrosini ta'minlashdagi moliya organlari va nazorat-taftish boshqarmalarining ustuvor vazifalari to'g'risida»gi 2005 yil 3 yanvardagi 1-son buyrug'i. 8-bandi.



¹⁰ Z.X. Srojiddinova “O”zbekiston Respublikasi budget tizimi” darslik 2010-yil.

bazasini va moliyaviy salohiyatini kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlar qabul qilish uchun amaliy takliflar kiritish.

Mahalliy budjetlar daromadlari avvalombor biriktirilgan daromadlardan, turli xildagi yig'imlardan va umumdavlat soliqlaridan ajratmalar shaklida tashkil topadi. Davlat mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun o'zishmcha moliyaviy resurslarni ajratadi hamda shu orqali mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solib turadi.

O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi ikki bo'g'indan iborat: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti - davlat budjeti: Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat budjeti, viloyatlar, Toshkent shahar, Respublika tuman va shaharlari mahalliy budjetlari. O'zbekiston Respublikasi budjeti bir butundir, ya'ni budjet tizimi barcha bo'g'inlarga davlatning yagona davlat budjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, respublika shahar va tumanlari budjetlarining uzviy birligini bildiradi.

Budjet birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining yaxlitligini belgilab beradi.

Budjet tizimi butun respublika hududida amal qilayotgan davlat daromadlari hamda umuman respublikani Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, shaharlar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltiriladigan davlat xarajatlarining bir butun tizimiga asoslanadi.

"Mahalliy budjet – Davlat budjetining tegishli viloyat tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi".

"Respublika budjeti – Davlat byudetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining budget tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining budget tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari haqida so'z yuritilgan. Jumladan, budget tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Byudjet birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining yaxlitligini belgilab beradi.

Byudjet tizimi butun respublika hududida amal qilayotgan davlat daromadlari xamda umuman respublikani Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltiriladigan davlat xarajatlarining bir butun tizimiga asoslanadi.

Mahalliy byudjet mablag'larning egasi sifatida amaldagi me'yoriy xujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi byudjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi.


Mahalliy byudjet xarajatlariga mablag'lar ajratish davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlari, moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli mablag'larga extiyoj sezilgan paytdan (moliya yilidan) boshlab ularni sarf xarajat qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz beradi.

Byudjetning yaxlitligi tufayli respublika o'z tasarrufiga pul resurslarining yagona markazlashtirilgan jamg'armasini oladi, uni byudjet tizimining faqat biror-bir bo'g'iniga takdim etish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga birlashtiriladigan barcha byudjetlarning majmui sifatida ifodalanadi.

"Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, ularni tashkil etishni va tuzish taomyillarini, shuningdek budjet jarayonida paydo bqladigan ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'zida

Quyidagi 1-rasmda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilish ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi¹¹

Respublika byudjet tizimining yaxlitligi va bir butunligi qonun tomonidan mustahkamlab qo'yilgan, unda quyi byudjetlarning biri yuqori bo'g'inga kirishi ko'zda tutilgan.

Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning quyidagi funktsiyalarida namoyon bo'ladi:

- mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etuvchi pul fondlarini shakllantirish
- bu pul fondlarini hududiy iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar o'rtasida qayta taqsimlash va ishlatish;
- mahalliy hokimiyatga bo'ysinuvchi korxona, tashkilot va muassasalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat olib borish.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 5- bob 34-35- moddalar, 2013 yil 26 dekabr

Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish xukumatimizning byudjet siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi shubhasizdir, bu borada ularni yanada qullab-quvvatlashga harakat qilinmoqda.

Bu byudjetlarning rejasini shakllantirish va mablag'larini xarajat qilish miqdori viloyat, tuman, shahar hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Mahalliy byudjetlar orqali hududlarning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishini moliyaviy mablag'lari bilan ta'minlab boriladi.

1.2. Mahalliy byudjetlar faoliyatini tashkil etish va boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, byudjet tizimini to'liq shakllantirish sohasida amalga oshirilgan ishlar va tajribalarni ushbu sohadagi jahon tajribasi bilan uyg'unlashtirish maqsadida qonunchilik bazasini mustahkamlashga katta hamiyat qaratildi.

Bu sohadagi dastlabki qadam O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi bilan boshlandi. Ushbu qonunning «Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asosi» deb nomlangan 11-moddasida ta'kidlanishicha "Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarini byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, shuningdek, respublika byudjetidan ajratilgan subventsia va dotatsiyalar tashkil etadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashadilar, o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlarning va aniq maqsadga qaratilgan fondlarning mablag'lari viloyat, tuman, shaharlarning mulkidir.

Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muxandislik infrastrukturasi ob'ektlari va boshqa ob'ektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saklash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek, ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yohud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida turli mulk shakllarini qaror toptirish va ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish asosida byudjetning daromadlar tushumi qonun xujjatlari muvofiq huquqiy va jismoniy shaxslarning to'lagan soliqlari va soliqsiz to'lovlari asosida jamlanadi.

Viloyat, tuman, shahar byudjetining daromadlariga:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq olinadigan soliqlar va yig'imlar;
- viloyat, tuman va shaharga qarashli mol-mulkni ijaraga berish yoki sotishdan keladigan tushumlar;
- qonunlarda nazarda tutilgan hollarda viloyat, tuman, shahar mulki hisoblangan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tekshirish vaqtida aniqlangan yashirib qolingani yoki kamaytirib ko'rsatilgan daromadlarning muayyan qismi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq boshqa tushumlar kiritiladi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi:

- fuqarolar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalardan;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan;
- byudjetdan tashqari o'zga mablag'lardan tarkib topadigan byudjetdan tashqari fondlar hosil qilishi mumkin.

Byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari bankdagi maxsus schyotlarda turadi, ularni olib qo'yish mumkin emas, ular tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga binoan sarflanadi. Yuqoridagi qonunning 15-moddasida aytilishicha, Xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar Kengashi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq viloyat, shahar valyuta fondi tashkil etish va ulardan xalq deputatlari Kengashining qarorlariga binoan foydalanishga haqlidir¹².

O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi hamda uni boshqarish asoslarini hamda davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini va Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirish hamda uning xarajatlarini amalga oshirish prinsiplarini ko'rsatib berdi. Shuningdek, mazkur qonun davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hamda davlat byudjeti mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartibini belgilab berdi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasi sifatida 2013-yil 26 dekabrda byudjet sohasiga tegishli bir qator qonun hujjatlarini, jumladan «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonunning o'rniga O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi qabul qilindi va 2014-2015 yillar uchun eksperiment tarifiida amaliyotga tadbiiq etila boshladi. Ushbu kodeksda mahalliy byudjetlarning tarkibiiy tuzilishi, daromadlari va xarajatlari tarkibi, mahalliy byudjetlarni boshqarish yuzasidan davlat organlarining vazifalari va mahalliy byudjetlarga taaluqli boshqa masalalar o'z aksini topgan.

Ushbu kodeksda ko'rsatilishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari o'z byudjetlarining balansliligini buzilishiga va Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori oshishiga olib keladigan tegishli byudjet daromadlarini qisqartirishga yoki xarajatlarini ko'paytirishga qaratilgan biror-bir qaror qabul qilishga haqli emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida

¹² Qosimova G.A. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya". 2007yil

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlarining tegishli byudjet daromadlari qisqarishiga olib keladigan qarorlari tegishli byudjet xarajatlari qisqartirilgan taqdirdagina qabul qilinishi mumkin.

Mahalliy byudjetlarni boshqarish tizimida barcha mahalliy byudjetlar rioya etishi lozim bo'lgan muayyan cheklovlar mavjud bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini qabul qilish va ijro etishda:¹³

- tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirishga, qonunda nazarda tutilgan holat bundan mustasno¹⁴;

- tegishli byudjetlar mablag'lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

- yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari berishga yo'l qo'yilmaydi.

-O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 21-bobi “ Byudjet tizimi byudjetlariga o'zgartirishlar kiritish” deb nomlanib bunda byudjet tizimi byudjetlariga o'zgartirishlar kiritish tartibi keltirilgan va moliya yili mobaynida byudjet tizimi byudjetlariga o'zgartirishlar kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:¹⁵

- byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va (yoki) xarajatlarini kamaytirishni yoki ko'paytirishni nazarda tutuvchi qonun hujjatlari o'zgarganda;

- bir byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchi uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar kamaytirilib, mos ravishda boshqa byudjet tashkiloti va

¹³ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 142-modda, 2013 yil 26 dekabr

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 143-moddasida keltirilgan holatlarda, 2013 yil 26 dekabr

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 143-moddalar, 2013 yil 26 dekabr

byudjet mablag'lari oluvchi uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar ko'paytirilganda;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarda byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlarning bir moddasidan boshqa moddasiga o'tkazish zaruriyati yuzaga kelganda;

- byudjet tasnifiga o'zgartirishlar kiritilganda.

Davlat byudjeti daromadlari prognozining oshirib bajarilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar hisobidan xarajatlar Davlat byudjetiga o'zgartirishlar kiritilmasdan amalga oshiriladi.

Shuningdek agar Davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida tegishli byudjetlarning daromadlari va xarajatlari parametrlarini ko'paytirish yoki kamaytirish to'g'risida qarorlar qabul qilinsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organlari tomonidan tegishli darajadagi byudjetlar hajmlariga o'zgartirishlar kiritiladi. Xarajatlarni ko'paytirish yoki qisqartirish barcha darajadagi byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar yo'li bilan amalga oshiriladi. Byudjet tizimi byudjetlarini ijro etishda byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarga kiritilgan o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida hisobga olinadi.

Ma'lumki, byudjet intizomi va nazorati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 11 fevralda qabul qilingan «Byudjet intizomiga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 66-sonli qarori va unga o'zgartirish kiritilgan 2002 yil 15 noyabrdagi 393-sonli qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning joylardagi hududiy boshqarmalari tomonidan ta'minlanadi. Ana shuni e'tiborga olgan holda, respublikamizda byudjet intizomini yo'lga qo'yish va uni zamon talablariga mos ravishda mustahkamlash uchun byudjet nazorati jarayonining ma'lum bir standartga asoslanishini maqsadga muvofiq,

deb hisoblaymiz. Shuning uchun ham dissertatsiya ishida ana shu masalaga ham e'tibor qaratilib, o'zida byudjet nazoratining umumiy jarayoniga qo'yilgan talablarni aks ettiruvchi yangi standart ishlab chiqildi.

Byudjet intizomini buzish hollarida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga asosan jazo choralari ko'riladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil 15 apreldagi qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaroriga asosan «O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksiga 175-2 va «O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga» 184-1 moddalar orqali «Byudjet intizomini buzish» to'g'risidagi bandlar kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik Kodeksining 175-2 moddasiga asosan, byudjet intizomini buzish, byudjet mablag'larini byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarning smetalarida ko'zda tutilmagan xarajatlarga yo'llash, shunday muassasalar va tashkilotlarda xarajatlar qismi bo'yicha byudjetdan ajratilgan mablag'larning limitlardan ortib ketishi, shtat-smeta intizomini buzish - kabi hatti-harakatlarga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarga nisbatan eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha jarima solish, shuningdek, byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haki, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlar to'lovi uchun pul mablag'lari berish banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz ravishda kechiktirilganligi uchun mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha jarima solish kabi ma'muriy choralar ko'rish huquqi nazorat-taftish Bosh boshqarmasiga berildi.

Mahalliy hokimiyat zimmasiga tegishli hudulardagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishdek ma'suliyatli vazifa yuklatilgan bo'lib, amalda bu masalalar umudavlat ahamiyatiga ega vazifalar hisoblanadi. Chunki, fuqarolarning kundalik hayotidagi vazifalar qanchalik darajada ijobiy hal etilishi ularning umumiy ijtimoiy dunyoqarashiga bo'lgan munosabatida aks etadi. Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga

yuklatilgan vazifalarning bajarishning moliyaviy imkoniyatini mustahkamlovchi asosiy manba hisoblanadi.

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, shubhasiz mahalliy boshqaruv organlarining mustahkam moliyaviy bazaga ega bo'lishni taqazo etadi. Ularning eng yirik va asosiy moliyaviy bazasi mahalliy byudjetlar hisoblanadi.

Moliyaviy faoliyat turli darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi idoralarning huquqiy holatlari va ularga yuklatilgan vazifalar ularga taaluqli qonunchilik xujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tuzilgan byudjet loyihasini (byudjetnomani) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etadi. O'z navbatida Oliy Majlisning ikkala palatasi, ya'ni Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatalarida byudjet muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Shu o'rinda aytish joizki, mahalliy byudjetlar mahalliy hukumat organlari tomonidan tuziladi va moliya vazirligiga taqdim etiladi. Davlat byudjetining loyihasi tasdiqlangandan keyin har bir mahalliy hukumatda deputatlar kengashi tomonidan ularning byudjetlari tasdiqlanadi.

Ana endi shu o'rinda davlat organlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishdagi vakolatlariga alohida to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining mahalliy byudjetlarni boshqarish sohasidagi vakolatlarini quyidagilardan iborat¹⁶:

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi;
- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 29-modda, 2013 yil 26 dekabr

- qonunda nazarda tutilgan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqadi;

- byudjet tizimi byudjetlarining mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

- byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosini yuritadi;

- byudjet tizimi byudjetlarining Yagona g'azna hisobvarag'idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag'larini boshqaradi;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazadi;

- byudjet tizimi byudjetlarida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga ko'ra to'lovlarni amalga oshiradi;

- byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi;

- byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining balanslilikiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi.

Amaldagi byudjet kodeksiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar

va shaharlar Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:¹⁷

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi yagona, bir butun mexanizmdan iborat bo'lganligi munosabati bilan Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar o'z tasaarufida butun davlat moliyasiga nisbatan aniq belgilangan funktsiyalarni bajaradi. Masalan, ular o'z hududlarida daromadlarning respublika byudjetiga kelib tushishini ta'minlaydi, tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida davlat ehtiyojlari uchun asosiy jamg'armalar va vositalarni olish va qayta ishlash uchun kapital xarajatlarni amalga oshiradi. «Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar o'z vakolatlari doirasida tegishli ma'muriy-hududiy birliklar moliyasiga rahbarlik qilinishini ta'minlaydi. Ushbu organlar, xususan, mahalliy byudjetlar loyihalarini ishlab chiqadi, ularni tasdiqdaydi va ijro etadi,

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 27-modda, 2013 yil 26 dekabr

shuningdek, mazkur byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlaydi, qonunchilikka muvofiq ravishda mahalliy byudjetga kelib tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar miqdori va ular bo'yicha sarflanadigan byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etishlari mumkin»¹⁸.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga mahalliy byudjetlarni boshqarish sohasida qator vaziflar yuklatilgan bo'lib, ularga muvofiq vakolatlari quyidagilardan iborat:¹⁹

- tegishli byudjet loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;
- byudjet so'rovi olinishiga qarab tegishli byudjetlarning loyihalarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko'rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlarini tasdiqlaydi;
- Byudjet kodeksida nazarda tutilgan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

¹⁸ Li A. Moliya huquqi. Darslik. Toshkent Davlat yuridik instituti. 2004. -398b.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 28-modda, 2013 yil 26 dekabr

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

- Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Hududiy moliya organlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishda alohida roli mavjud bo'lib, ular asosan byudjet loyihasini to'g'ri tuzish va byudjetni samarali ijro etishga qaratilgan va quyidagilardan iboratdir²⁰:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tayyorlaydi hamda ularni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 30-modda, 2013 yil 26 dekabr

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;
- tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;
- byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini etkazadi;
- byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;
- byudjet kodeksidan nazarda tutilgan tartibda tegishli byudjetlar parametrlariga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;
- tegishli byudjetlarning mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga tegishli byudjetning ijrosi to'g'risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;
- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;
- tegishli byudjetlar ijrosining byudjet hisobini yuritadi;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari balansliligiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi.
- Davlat byudjeti daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga har chorakda tegishli ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha etkazadi;
- byudjet ssudalarini beradi.

Hududiy moliya organlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

I bob bo'yicha xulosalar

Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning bajaradigan funktsiyalarida namoyon bo'lishi bilan barobarida ularning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladiki, ushbu vazifalar birinchi navbatda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish va mustahkamlash bilan o'zaro bog'liqdir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ham mahalliy byudjetlarning o'z daromadlarini kamligi, hali hamon yuqori byudjetdan beriladigan mablag'larga muhtojligi mahalliy byudjetlarni boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yishni talab qiladi. Bu borada esa mahalliy byudjetlarni boshqarishda moliya organlarining vakolatlari muhim o'rin tutadi. 2014-2015 yillarga mo'ljallangan va eksperiment tariqasida amaliyotga tabiq etilgan "O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi"ning qabul qilinishi bu boradagi masalalarga yanada oydinlik kiritdi. Boshqacharoq aytadigan bo'lsak, byudjet tizimi bo'g'inlarini, jumladan mahalliy byudjetlarni boshqarishda har bir davlat organining vazifasi vakolatlari alohida ko'rsatib qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan respublika va hududiy g'azna hisobvaraqlarini qo'llash sharoitida respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilaydi²¹.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 4 avgustdagi 69-son [buyrug'iga](#) ilova

II BOB. MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH VA XARAJATLARINI REJALASHTIRISHNING HOZIRGI AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllantirishning hozirgi holati tahlili

Bizga ma'lumki byudjet daromadlari – bu davlat byudjet tizimining byudjetlariga qonun hujjatlarida belgilangan beg'arazlik va qaytarib bermaslik tartibida kelib tushadigan pul mablag'lari. Byudjet daromadlari solikli va soliqsiz daromadlardan iborat, shuningdek ularga beg'araz pul o'tkazmalari ham kiradi.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasi hududlarda yaratilayotgan milliy daromad, ya'ni ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, daromadlarning doimiy va bir maromda tushumini mahalliy hokimiyat daromadlari oshishidan manfaatdorligi bilan bevosita bog'likdir. Birinchidan, mahalliy byudjetdan daromadlarni oshirishning ichki rezervlari, hududlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishni, joylarda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan chambarchas bog'lik holda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlat mulkini xususiyashtirish jarayoni, turli mulkchilik formalarini yuzaga keltirish va mulkchilik formalari o'rtasida, raqobat o'rtasida, erkin rivojlantirishga erishish muhim rol egallaydi. Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash bevosita qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'likdir.

Mahalliy byudjet daromadlari nisbati mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalar, ular tomonidan mahalliy soliq va yig'implarni yig'ib olish imkoniyati, hamda yuqori davlat organlarining hududlarga moliyaviy yordam bera olish imkoniyati, hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, davlat tomonidan olib borilayotgan moliya – byudjet siyosati bilan bevosita bog'likdir. O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga binoan soliqlarni umumdavlat soliqlari va mahalliy soliq va yig'implarga ajratiladi. Umumiy tarzda mahalliy byudjetlar daromadlari ikki turga bo'lib o'rganiladi:

- 1) Mahalliy byudjetga birlashtirilgan daromadlar;

2) Mahalliy budjetlarning tartibga soluvchi daromadlari.

1-Jadval

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'рни²²

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil (reja)	
	mln.som	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jjami nis-n, %da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	20614100,0	100	25104900,0	100	30160800,0	100	36184900,0	100
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	218100,0	1,1	342100,0	1,3	505000,0	1,7	617000,0	1,7
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	446400,0	2,2	659900,0	2,6	767800,0	2,5	743500,0	2,1
Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	555400,0	2,7	582500,0	2,3	847100,0	2,8	1281700,0	3,5
Mol-mulk solig'i	642000,0	3,1	831400,0	3,3	1135000,0	3,8	1716700,0	4,7
Yer solig'i	446000,0	2,2	646300,0	2,6	665200,0	2,2	929600,0	2,6
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1585300,0	7,7	2180100,0	8,7	2595800,0	8,6	2931800,0	8,1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	73100,0	0,3	97700,0	0,4	125400,0	0,4	163700,0	0,5

Yuqoridagi jadvalda berilgan ma'lumotlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, jami budjet daromadlarini shakllantirishda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, yer solig'i va mol-mulk soliqlarining salmog'i o'sish tendentsiyasiga ega.

Mamlakatimizning asosiy strategik maqsadi ochiq bozor iqtisodiyotiga asoslangan, erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlatni qurish hisoblanib, bunda bir qancha vakolatlarning davlatdan mahalliy hokimiyat organlariga, jamiyat tuzilmalariga va mahalliy o'zini – o'zi boshqarish organlariga o'tishini ko'zda tutadi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, “Biz mahalliy hokimiyat organlari va fuqqarolarning o'zini – o'zi boshqarish organlari oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lishiga

²²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar.

erishishimiz lozim. Buning uchun ularning daromadlarini shakllantirish manbalarini muntazam kengaytirib borishimiz zarur bo'ladi".

Shu munosabat bilan soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan mahalliy soliqlar bilan birga umumdavlat soliqlarining ham bir qismi mahalliy budjetlarga yo'naltirilmoqda.

Soliq tizimi juda murakkab iqtisodiy jarayon bo'lib, u soliqlar va yig'imlardan, davlat soliq siyosati va soliq mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi va yaxlitligidan iborat. Soliqlar ham budjetga tushishiga qarab umumdavlat va mahalliy soliqlardan iborat bo'ladi. Umumdavlat soliqlari bu davlat budjetiga kelib tushadigan va umumdavlat miqyosidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladigan pul mablag'laridir.

Lekin, bu soliqlarning hammasi ham davlat yoki respublika budjetida oldirilmasdan ayrimlari hududlarni iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib, mahalliy hokimiyatlar ixtiyorida qoldiriladi.


Mahalliy soliqlar esa soliq tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular asosan mahalliy budjetda mahalliy hokimiyat funktsiya va vazifalarini bajarish uchun qoldiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 7-moddasida mahalliy soliqlarga quyidagilar kiritilgan:

- 1) mol-mulk solig'i;
- 2) yer solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- 5) savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shuningdek ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya uchun yig'im;
- 6) yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olinganlik uchun yig'im.

Yuqorida sanab o'tilgan daromad manbalarini biz mahalliy budjetlarning biriktirilgan daromadlari sifatida aytishimiz mumkin.

Soliqlarning respublika va mahalliy budjetlarga taqsimlanishi²³



Mahalliy budjetlar daromad bazasini yanda mustahkamlash budjetlararo munosbatlarni isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Respublikada mahalliy soliqlar va soliqsiz tushumlardan shakllangan daromadlar mahalliy budjetlar xarajatlarining kam qismini qoplaganligi uchun mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy qismini budjetlararo tartibga solish orqali shakllantirish yo'lga qo'yildi. Bu turdagi daromadlar tartibga soluvchi daromadlar deb yuritiladi (7-rasm). Bunday daromadlar budjet tizimi budjetlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar orqali vujudga keladi.

Tartibga soluvchi daromadlar - bu yuqori budjetlardan quyi budjetga, ularni daromad va xarajatlarini boshqarib turish maqsadida beriladigan pul mablag'lari majmuidir. Tartibga soluvchi daromadlarga ushbu maqsadlar uchun

²³ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

ishlatiladigan barcha moliyaviy resurslar, ya'ni alohida umumdavlat soliqlaridan o'tkazmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar, yuqori budjetdan o'zaro hisob – kitob asosida olingan mablag'lar kiradi.

2014-yil 1-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi²⁴ ga muvofiq esa mahalliy budjetlarning daromadlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qat'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan:

- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganligi uchun olinadiga soliq;
- mol – mulk solig'i;
- yer solig'i;
- yagona yer solig'i;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;


5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 52(I) - son. 2013-yil 31-dekabr.

Yuqorida keltirib o'tilganidek, mahalliy budjetlarning tartibga soluvchi daromadlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

8-rasm

Mahalliy budjetlar tartibga soluvchi daromadlari tarkibi²⁵



O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar mahalliy budjetlarning daromadlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aksiz solig'i mahalliy budjetlar daromadlariga o'tkazib beriladi.

Mahalliy budjetni tartibga soladigan daromadlarning huquqiy asosi bo'lib, birinchidan, "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi" hisoblanadi.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 52(I) - son. 2013-yil 31-dekabr.

Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasi budjeti va budget daromadi manbaini soliqlar sifatida belgilaydi. Ushbu soliqlar davlat ijtimoiy himoyasi, jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish va mamlakatning xalqaro to'lovini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag' bilan ta'minlash uchun joriy qilingan.

Ushbu Kodeksda O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinayotgan soliqlar, soliq to'lovchilar soliq solish ob'yekti, soliq to'lash tartibi, soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlar, soliq to'lash bo'yicha chiqqan nizolarni yechish tartibi belgilanadi.

Mahalliy budget daromadlari tarkibida tartibga soluvchi daromadlar ta'siri hamon sezilarli darajada qomoqda.

Ushbu ta'sir bilan "mahalliy budget taqchilligiga yo'l qo'yilmasligi" holati ham yanada kuchaydi. Chunki biriktirilgan daromadlar tarkibida belgilovchi salmoqqa ega bo'lgan mahalliy soliqlar va yig'imlar turi va me'yorlari o'z chegarasiga ega.

Bu manbadagi asosiy imkoniyat yangi soliq va yig'imlarni joriy etish hamda soliqsiz daromadlardan tushadigan mablag'larni ko'paytirishdan iborat.

Shu bois hududiy iqtisodiyot muammosi, mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy tarmoq muammolarini xalq etish yuzasidan siyosati tartibga soluvchi daromadlarning hozirgi kundagi belgilovchi ahamiyatini belgilaydi.

Mahalliy budgetning umumiy moliya tizimidagi salmogi 40 foizdan 50 foizgacha bo'lishi mumkin. Bu nisbat yoki boshqacha qilib aytganda ulush respublika miqyosida quyidagicha ko'rinishga ega bo'lib kelmoqda. (1-jadval)


2-jadvaldan shuni tahlil qilish mumkinki, 2009 -2013 – yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining jami daromadlarini 100% deb oladigan shuning 40 – 42 % daromadlari mahalliy budgetlar hisobiga shakllangan.

2009 – yilda bu ko'rsatkich 41%ni, 2010 –yilda 42,4% ni, 2011-yilda 42,7% ni, 2012 –yilda 40,7%ni va 2013 – yilda esa 40,4% ni tashkil etgan.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibidagi respublika budjeti va mahalliy budjetlarning
2009- 2013 yillardagi ulushi**

2-jadval va 9-rasm²⁶

	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil
respublika budjeti	59,0%	57,6%	57,3%	59,3%	59,6%
mahalliy budjetlar	41,0%	42,4%	42,7%	40,7%	40,4%




²⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi. www.mf.uz

Ushbu ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, mahalliy budjetlarnig davlat budjetida ahamiyati katta. Ular davlat budjeti daromadlarining deyarli yarmini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlari daromadlari tarkibida

hududlarning 2013-yildagi ulushi 3-jadval va 10-rasm²⁷

Hududlar	2013y
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4,1%
Andijon viloyati	6,3%
Buxoro viloyat	7,2%
Jizzax viloyati	2,5%
Qashqadaryo viloyati	12,3%
Navoiy viloyati	5,0%
Namangan viloyati	5,4%
Samarqand viloyati	7,2%
Surxondaryo viloyati	4,6%
Sirdaryo viloyati	2,5%
Toshkent viloyati	12,0%
Farg'ona viloyati	12,4%
Xorazm viloyati	4,2%
Toshkent shahri	14,5%



²⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi. www.mf.uz

3-jadvalda esa 2013-yilda mahalliy budjetlar daromadlarini shakllanishini hududlar bo'yicha ko'rib chiqish mumkin. Bunda shuni ko'rish mumkinki, eng katta ulush Toshkent shahri mahalliy budjetiga tegishli bo'lib, u jami mahalliy budjetlar daromadining 14,5% ini tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda Far'gona, Qashqadaryo va Toshkent viloyati mahalliy budjetlari egallagan. Bu narsa budjet daromadlari-ning hududning iqtisodiy darajasiga bog'liqligidan dalolat beradi.

2.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirishning hozirgi holati tahlili

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, ularning rivojlanish darajasi, investitsion iqlimi muhim ahamiyat kasb etadi. Hududiy rivojlanishning milliy iqtisodiyotdagi o'rniga to'xtaladigan bo'lsak, ular bizning nazarimizda qo'yidagilardan iboratdir: hududlarni mutanosib rivojlantirish – makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish omili ekanligi; milliy iqtisodiyotning hududiy mutanosibligi mamlakat yalpi ichki mahsulotining qo'shimcha 1-3 %ga o'sishini ta'minlay olishi; tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish borasida mavjud muammolarning tarmoqqa nisbatan tezroq hududlarda echish imkoniyatining mavjudligi; hududlar iqtisodiyotidagi o'zgarishlarning bevosita makroiqtisodiy jarayonlarga ta'siri yuqoriligi; globallasuv va mintaqalararo integratsiyalashuv jarayonlarida hududlarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchiga aylanayotganligi; raqobat muhitini shakllantirishda hududlarning roli yuqoriligidir. Budjet tizimining barcha xarajatlari turli budjetlar o'rtasida taqsimlanadi, bu esa u yoki bu xarajatni muayyan budjetga kiritilishini anglatadi. Bu birinchidan, moliyalashtirilayotgan muassasaning respublika va mahalliy organlarga qarashli bo'lishi, ikkinchidan, moliyalashtirilayotgan xarajatning ahamiyatidan kelib chiqadi. Respublikamizda ijtimoiy dasturlarni qabul qilinishi va ro'yobga chiqarilishi, birinchi navbatda aholining kam ta'minlangan tabaqalarini qo'llab-quvvatlash, sog'lom avlodni tarbiyalash, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning

kuchaytirilishi mahalliy budjetning ahamiyatini oshiradi. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining eng bir muhim yo'li – markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralri vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga boqichma-boqich o'tkaza boishni ta'minlashdir"²⁸.

Mahalliy budjet harajlarining keyingi yillarda ortishini yana shu bilan izohlash mumkinki, mahalliy budjetdan davlat kapital qo'yilmalarini moliyalashtirishning xajmi ortib bormoqda, o'rta maxsus o'quv yurtlarining xarajatlari va aholini ijtimoiy himoyalashga qarailgan xarajatlar sezilarli darajada o'sib bormoqda. Yana shuni kayd etishimiz lozim, oxirgi yillarda yangi turar-joy va madaniy –maishiy ob'ektlarni qurilishi ko'paymoqda, bu esa o'z-o'zidan ularni saqlash xarajatlarini oshishiga olib keladi. Mahalliy budjetning xarajatlari tarkibi alohida hududlarda bir xil bo'lmaydi, balki shu mintaqadagi turli darajada bo'lgan xo'jalik va idoralarning hajmiga bog'liq bo'ladi.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjet xarajatlarining 2010-2013 yillardagi Dalat byudjeti xarajatlaridagi salmog'i²⁹ Mln.so'm

Ko'rsatkichlar	Yillar			
	2010	2011	2012	2013
O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari	13732502,5	16991100,0	21571417,7	26312414,5
Respublika byudjeti xarajatlari	5927778,7	7497041,6	9882362,3	12127556,1
Davlat byudjeti xarajatlariga nisbatan salmog'i (%)	43,1	44,1	45,8	46,0
Mahalliy byudjetlar xarajatlari	7804723,7	9494058,4	11689055,4	14184858,4
Davlat byudjeti xarajatlariga nisbatan salmog'i (%)	56,9	55,9	54,2	54,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha mahalliy byudjetlar xarajatlarining O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlaridagi salmog'i 2010-2013 yillardagi dinamikasi deyarli bir xil ko'rinishga ega bo'lgan. Maxalliy byudjet

²⁸ Karimov I.A., O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 30 avgust

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

xarajatlari 2010 yilda davlat byudjetiga nisbatan 56,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 55,9 %ni, 2012 yil 54,2 %ni tashkil etgan. 2013 yil mahalliy byudjet xarajatlari davlat byudjetiga nisbatan 54,0% ni tashkil etgan. Bu esa hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun qilinayotgan xarajatlarni imkon qadar mahalliy byudjetlar orqali moliyalashtirish borasidagi tadbirlari natijasidir.

O'zbekiston Respublikasi "Byujet kodeksi"ning 71-moddasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari ta'lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta'lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;

respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarini saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;

qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

hududiy madaniyat va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek maqsadli tadbirlar xarajatlari;

shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarining o'rnini qoplash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

qishloq xo'jaligi sohasida hududiy nazorat organlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to'lash, shuningdek erlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish;

uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

suv yo'llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;

aholi punktlarini obodonlashtirish;

shaharlarning, boshqa aholi punktlarining ko'chalarini va xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash, shuningdek ayrim tashkilotlar xarajatlari;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

4) mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

5) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun er uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga etkazilgan zararining o'rnini qoplash xarajatlari;

7) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Buni biz Toshkent shahar Yunusobod tuman mahalliy byudjeti xarajatlari tarkibini tahlil qilganimizda ham ko'rishimiz mumkin.

5-jadval.

Yunusobod tumani mahalliy byudjetining xarajatlari tarkibi³⁰

Xarajatlar	2011 yil (ming so'mda)	2012 yil (ming so'mda)	2013 yil (ming so'mda)
1. Umumiy ahamiyatdagi davlat xizmatlari	1 029 544,3	1 415 776,3	1 778 806,1
2. Mudofaa	6 218,1	9 985 ,6	14 872,3
3. Iqtisodiy masalalar	48 376,6	60 918 ,7	69 468,1
4. Uy-joy va kommunal xizmatlari	1 911 029,2	2 298 091,1	2 613 013,0
5. Sog'liqni salash	10 044 455,0	14 008 716,3	16 080 566,4
6. Dam olish, madaniyat, sport va din	174 606,9	203 765 ,2	263 025,9
7. Ta'lim	33 943 117,5	43 621 199,2	51 642 812,5
8. Ijtimoiy himoya	398 672,1	501 926,0	616 506,8
Xarajatlar jami	51 230 019,7	64 120 378,4	73 079 071,1

Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, 2011 yilda Yunusobod tuman mahalliy byudjet xarajatlari jami 51 230 019,7ming so'mni tashkil etgan. 2012 yilda tuman

³⁰ Yunusobod tuman moliya bo'limi ma'lumotlari asosida

byudjetining jami xarajatlari 64 120 378,4 ming sumni tashkil qilgan 2013 yilda esa tuman byudjeti jami xarajatlari 73 079 071,1 ming so'mni tashkil qilgan.

Yunusobod tumanida 2011-2013 yillarda ijtimoiy sohalar uchun xarajatlarning umumiy xarajatlardagi salmog'i o'sgan. Buning asosiy sababi mustakillikning dastlabki yillaridan ijtimoiy soxani ustivor yunalishga ega bulganligi va bu soxaning ishlab chiqarishdan ancha orkada kolishini qisman bulsada urnini qoplashchdan iboratdir

Bundan tashqari aholini ijtimoiy himoya qismining aniq uslubi ishlab chikarilganligi xam bunga sabab buldi. Bunda mahalliy byudjetlar orkali ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishning faqatgina O'zbekistan Respublikasida qabul qilingan qonunlar doirasida asosiy ish xaki fondi va uta muxim tadbirlarni moliyalashtirilishi kuzda tutildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga byudjet ssudalari, dotatsiyalar, subventsiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar ajratilishi mumkin.

Inson taraqqiyoti uchun juda zarur bo'lgan sohalardan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ijtimoiy himoya xarajatlari asosan mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladi.

Bozor munosabatlari rivojlangan sari maxalliy byudjetlar orqali ijtimoiy cohalarni moliyalashtirishning roli oshib bormoqda. Hozirgi paytda maxalliy byudjetdan ajratilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish, byudjetdan tashkdri manbalarni, ijtimoiy soxdning uzi ishlab tonayotgan mablag'larini, fuqarolarning pul daromadlarini faolroq jalb etish vazifasi oldingi uringa kuyildi. Ijtiomiy sohaning tarkibini qayta qurishni jadallashtirishga, uning qisman o'zini-o'zi mablag' bilai ta'minlashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan bir kator chora-tadbirlar ko'rildi. Shu bilan birga fuqarolarning ta'lim olish, salomatligini muxrfaza qilish, jismoniy va rivojlanish borasidagi konstitutsiyaviy kafolatlarini ijtimoiy-madaniy soha muassasalari xizmatidan erkin foydalanishga qaratilgan yo'li saqlab qolindi.

Bularning xammasi iktisodiyotni bozorga moslab o'zgartirish oqibatlarini yumshatishga katta yordam beradi. Ta'lim, soglikni saqlash, fan, madaniyatni uz ichiga qamrab oladigan ijtimoiy soha maxalliy byudjet xarajatlarining katta qismidir va ular

ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun xarajatlar hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun mahalliy byudjetidan kilingan xarajatlarni ushbu xarajat moddalari bulimiga kiruvchi tarmoqlar buyicha taqsimotini 6-jadval orqali ko'rib chiqamiz.

6-jadval

Ijtimoiy-madaniy tadbirlarga kilingan xarajatlarning Yunusobod tumanida mahalliy byudjetlari xarajatlari 2011-2013 yillardagi salmog'i³¹

(ming.so'm)

Xarajatlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
	Miqdori	Miqdori	Miqdori
Ijtimoiy-madaniy tadbirlarning jami	44162179,4	57833680,7	67986404,8
Ularning jami xarajatlardagi salmog'i foizda	86,2	90,1	93,0
Maorif xarajatlari	33 943 117,5	43 621 199,2	51 642 812,5
Sog'liqni saqlash xarajatlari	10 044 455,0	14 008 716,3	16 080 566,4
Dam olish, madaniyat, sport va din	174 606,9	203 765 ,2	263 025,9

Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, maorif soxasiga byudjet xarajatlarining katta kismi yunaltirilmokda xamda ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari ichida ham asosiy o'rinni egallaydi, ya'ni 2011 yilda ta'lim soxasi uchun 33 943 117,5 ming sum mablag' ajratilgan, bu esa jami ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarining 76,8 % ni tashkil etadi. 2012 yilda esa 43 621 199,2 ming sum mablag' ajratilgan bulib, bu esa jami ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarining 75,4 %ni tashkil etadi. Ta'lim soxasini jaxon andozalariga moslashtirish, tayyorlanayottan mutaxassislarning sifat jixatdan talablarga tuliq javob berishini ta'minlash maksadida 2013 yilda ta'lim soxasiga jami 51 642 812,5 ming sum mablag'ni tashkil etib, bu esa jami ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarining 75,9 %ni tashkil etadi..

Bu uz navbatida sarf qilinayotgan mablag'larning samaradorligini oshirish, ulgayib kelayotgan yosh avlodni yangi ruxda tarbiyalashga, ularning bilim darajasini jaxrn talabiga javob beradigan darajaga kutarishni talab etadi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek: "Xalq ta'limining butun tizimini yanada qat'iyat bilan va tezroq qayta kurish zarur. hozirgi sharoitda xalq ta'limi tizimini, uning barcha buginlarini yagona kompleks sifatida karash talab etilmokda"

³¹ Yunusobod tuman moliya bo'limi ma'lumotlari asosida

Bunda asosiy maqsad ushbu sohani bozor iqtisodiga utish sharoitida rivojlantirish, maktabgacha bolalar muassasalari, umumta'lim maktablari urta maxsus kasb-xuiar kollejlarning moddiy texnika bazasini iboratdir, chunki mustaxdam, har tomonlama mukammal ega bulmasdan ijtimoiy hayotimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni muvaffakiyatli amalga oshira olmaymiz.

Ushbu sohani rivojlantirish, avvalo jamiyat a'zolarining savodi va bilimini oshirish, malakali mutaxassislarini tayyorlash va ularni zamon talablari asosida malakasini oshirib borish kabi tadbirlarni amalga oshirishni kuzda tutadi. Bu ayniqsa ta'lim sohasida ishlab chikilgan millim dasturni amalga oshirish sharoitida juda muxrtmdir. Bu borada respublikamiz Prezidenta I.A.Karimov shunday deganlar: "Uzbekistondagi mexnat saloxiyatining muhim xususiyati - uning ta'lim darajasi yuqoriligidir".¹ Bu maqsadga erishish esa ushbu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Shu maqsadda ushbu sohaga Yunusobod tumani mahalliy byudjeti xarajatlarining tarkibi qanday bulganligini 7-jadvalda ko'rib chiqamiz.

7-jadval

Yunusobod tumanida buyicha 2011-2013 yillarda ta'lim sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirishga qilingan xarajatlar tarkibi³³

ming. sumda

Xarajat turlari	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Jami	138118,7	179876,1	227410,1
shu jumladan			
Ish haqi	99223,7	130981,4	170275,9
O'tkazilgan ish haqi	23575,2	31435,7	40866,5
Kantselyariya va xo'jalik xarajatlari	1193,8	1556,1	1618,3
Xizmat safarlari va xizmat yuzasidan ko'chishlar	316,1	384,9	400,3
O'quv xarajatlari	2,4	2,0	2,1
Stipendiyalar	0,0	0,0	0,0
Ovqatlanish uchun xarajatlar	4878,5	5103,5	5613,9
Dori-darmon va bog'lovchilar materiallari, sotib olish xarajati	52,4	41,1	42,8
Asbob uskunalar va buyumlar sotib olish xarajatlari	1069,8	1337,7	334,4
Yumshoq jihozlar va maxsus kiyimlar sotib olish	357,4	443,0	110,7
Bino va inshootlarni kapital ta'mirlash xarajatlari	997,6	1992,5	498,1
Boshqa har xil sarf-xarajatlar	6451,7	6598,1	7647,1

³² I.A.Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" T.: Uzbekistan, 1995, 252-b.

³³ Yunusobod tuman moliya bo'limi ma'lumotlari asosida

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xarajatlarning asosiy kismini ish haqi xarajatlari tashkil etadi. Ish haqi uchun 2011 yilda byudjetdan 99223,7 mln.sum ajratilgan bolsa, 2012 yilga kelib uning mikdori 130981,4 mln.sumni, 2013 yilda esa uning mikdori 170275,9 mln.sumga etdi, ya'ni bu kursatkichlar 2011 yilda jami ta'lim xarajatlarining 71,8 %ni, 2012yilda esa bu kursatkich 72,8 %ni tashkil qiladi.

Biz birinchi bobda mahalliy byudjet xarajatlarining asosiy moddalarini sanab utgan edik. Ushbu bobda shu modellalar buyicha mablag'larning taksimlanishini ijtimoiy madaniy - tadbir xarajatlari buyicha alohida kurib chiqamiz va tahlil qilamiz. Ijtimoiy-madaniy sohalardan biri ta'lim sohasidir. Bu bevosita bozor iktisodiga utish jarayonida davlat tomonidan axolini ijtimoiy ximoya qilish borasida olib borilaetgan siyosat bilan bogliq. Oxirgi yillarda xalq ta'limi muassasalari xodimlarini ish xaqini tulashda bir qancha ijobiy uzgarishlar amalga oshirilmokda. Jumladan, xodimlarning ish haqini tulashda yagona tarif setkalarining kiritilishi va byudjet tashkilotlarida 15%li moddiy ragbatlantirish fondining joriy qilinishidir.

Bu o'zgarishlar albatga xalq ta'limi muassasalari xodimlarining mexnatini samaradorligani oshirishga, ish haqining xajmini ularning mexnatini maxsuli va oxirgi natijalari bilan boglashga olib keladi.

Ta'lim soxasiga qarashli muassasalar xarajatlari tarkibiga ish haqi xarajatlaridan tashqari kundalik faoliyatini ta'minlash, moddiy texnika bazasi xarajatlari, uqituvchilarning imtiyozli kommunal xizmatlar (gaz, elektroenergiya)lardan foydalanish xarajatlari va maktabgacha bolalar muassasalarida oziq-ovqat xarajatlari xam kiradi. Ushbu xarajatlarni rejalashtirishda asos qilib, xirziri kunda sinflar soni, ukuvchilar soni, bolalar bogchalariga qatnovchi bolalar soni xamda har bir kursatkichga tugri keladigan utgan davr xarajatlari asosida hisoblangan pul mablag'idan kelib chiqib, har bir xarajat turi buyicha xarajatlar rejalashtiriladi.

Mamlakatimizda 2012 yilda umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Eng zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan, 46 ming 300 dan ortiq o'quvchiga mo'ljallangan 166 ta maktab kapital ta'mirlandi.

Hukumat qaroriga muvofiq, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha 2011-2016 yillarga mo'ljallangan dasturni amalga oshirish uchun 277 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Mablag'larni jamlash va dasturda belgilangan chora – tadbirlarning moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida o'tgan yili maxsus jamg'arma tashkil etildi va mablag'lari hisobidan 2011 yilda bir yilga mo'ljallangan 39 milliard so'mdan ortiq tadbirlar moliyalashtirildi.³⁴

Ijtimoiy soxaning yana bir muhim tarmogi bulib, sogliqni saqlash tarmogi hsoblanadi. Bu soha insonlariing salomatligini saqlash va jamiyatda soglom avlodni etishtirishda muxim rol uynaydi. Shuning uchun ham davlat bu sohani kullab-kuvvatlaydi. Sog'liqni saqlash sohasida qator isloxotlar amalga oshirilmokda. Bu islohotlar sog'liqni saqlash sohasini, aholi sog'ligini ximoya qilishdagi faoliyatini yanada kuchaytirishga karatilgan.

Prezidentimizning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek, “Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha 2012 yilda izchil va aniq maqsadga qaratilgan ishlar amalga oshirildi.

Sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash uchun o'tgan yili Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga aylantirildi.

2012 yil davomida Jamg'arma mablag'lari hisobidan 154 ta tibbiyot muassasasini qurish va rekonstruktsiya qilishga 255 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish, 7,5 ming o'ringa mo'ljallangan shifoxonalarni va bir smenada 11 ming kishini qabul qila oladigan ambulatoriya-poliklinika ob'ektlarini foydalanishga topshirish imkonini berdi.

³⁴ Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. // – T.: O'zbekiston. 2012y. –16- b

Tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunolari bilan jihojlash uchun Jamg'arma tomonidan 8 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi".³⁵

Bu sohadagi islohotlar avvalambor profilaktika ishlarini ancha yuqori darajaga kutarishga, qishloq tibbiyot muassasalarini rivojlanishiga poliklinika xizmatini kuchaytirilishi lozim. Bir suz bilan aytganda, kasalni davolashga emas, balki kasallikning oldini olishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Ammo xozirgi kunda sogliqni saqlash xarajatlarining moliyalashtirishning aksariyat qismi kasalxonalar xarajatlariga yunaltirilmokda.

Ushbu yukoridagi fikrlarga aniqlik kiritish maqsadida quyidagi jadval ma'lumotlarini kurib chiqaylik va tahlil qilaylik (8-jadvalga qarang)

8-jadval

Yunusobod tumani buyicha sogliqni saqlash muassasalariga 2011-2013 yillarda berilgan mablag'lar tarkibi³⁶

Ming so'mda

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	mln.so'm	%	mln.so'm	%	mln.so'm	%
Jami sog'liqni saqlash xarajatlari	10 044 455,0	100,0	14 008 716,3	100,0	16 080 566,4	100,0
Shundan kasalxonalar xarajatlari	5554583,6	55,3	7620741,6	54,4	8763908,6	54,5
Ambulatoriya-poliklinika xarajatlari	2059113,2	20,5	2745708,3	19,6	3151791,0	19,6
Boshqa xarajatlar	411822,6	4,1	756470,6	5,4	852270,0	5,3
Fel'dsherlik-akusherlik punktlari xarajatlari	1516712,7	15,1	2199368,4	15,7	2524648,9	15,7
Tuberkulyoz, sil kasalligi bilan og'ringan bemorlar sanatoriyalari xarajatlari	110489,0	1,1	154095,8	1,1	176886,2	1,1
Sanatoriya-epidemiologiya stantsiyasi xarajatlari	381689,2	3,8	532331,2	3,5	611061,5	3,8

8 - jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, kilingan xarajatlarning asosiy qismini kasalxona xarajatlari egallaydi, ya'ni 2011 yilda kasalxona xarajatlari jami sogliqni saqlash xarajatlarining 55.3%ni tashkil etgan, ambulatoriya-poliklinika xarajatlari esa jami

³⁵ I.A. Karimov Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: "O'zbekiston". 2013 y. 33.b.

³⁶ Yunusobod tuman moliya bo'limi ma'lumotlari asosida

sog'liqni saqlash xarajatlarining 20,5 %ini tashkil etgan. 2012 yilda esa kasalxona xarajatlari jami sogliqni saqlashga ketgan xarajatlarning 54,4 %ini tashkil etgan bulsa, ambulatoriya-poliklinika xarajatlari esa jami soglikni saqlash xarajatlarining 19,6%ini tashkil etgan. 2013 yilda esa bu kursatkich, ya'ni kasalxonalar xarajatlari jami soglikni saqlashga ketgan xarajatlarning 54,5% ini tashkil etgan, ambulatoriya-poliklinika xarajatlari esa jami sogliqni saqlashga ketgan xarajatlarning 19,6 % ni tashkil etgan.

Endi bu yuqoridagi kursatkichlarga boshkacha yovdoshgan holda taxlil qilaylik, kasalxonalar xarajatlari 2011-2013 yillar mobaynida jami sogliqni saqlash xarajatlaridan salmogi pasayishi tendentsiyasiga ega bulganining guvoxi bulamiz, ya'ni u 55.3 %dan 54,5%ga pasaygan.

Ambulatoriya -poliklinika xarajatlari esa 2011-2013 yillarda jami soglikni saqlash xarajatlardagi salmogi 20,5%dan 19,6 % ga pasayganligining guvohi buldik.

Bundan shu narsa kurinib turibdiki, sogliqni saqlash sohasidagi olib borilayotgan islohotlar avvalam bor poliklinika xizmatini kuchaytirishga yoki kasallikning oldini olishga e'tiborning kuchaytirilayotganidan dalolat beradi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ayganlaridek: "Sogliqni saqlash soxasini faqat tubdan isloh kilib qolmasdan, shu bilan birga uni moddiy, texnik jihatdan mustaxkamlash, zamonaviy davolash anjomlari, yuv;ori malakali tibbiy xodimlar bilan ta'minlash zarur"³⁷ Bu vazifalarni amalga oshirish maxalliy byudjet xarajatlarini kuchaytirishni talab etadi. Endi ushbu soxaga kilingan xarajatlarni xarajat moddalari buyicha kurib chiqamiz. (9-jadvalga qarang).

Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, soglikni saqlash muassasalari xarajatlari ichida ish haqi xarajatlari asosiy o'rinni egallaydi, ya'ni jami hisoblangan ish haki miqdori jami soglikni saqlash xarajatlarining 2011 yilda 70,0%ni, 2012 yilda 71,3%ni, 2013yilda esa 73,4%ini tashkil etadi.

Hozirgi kunda barcha byudjet tashkilotlari va muassasalarida bulgani kabi ish haqi yagona tarif setkasiga asosan va xodimlarning malaka darajalariga qarab belgilanadi. Xodimlarning malakasi oliy, 1-darajali, 2-darajali kabilarga bulinadi. Ularga bu malaka darajalari maxsus tuzilgan komissiya tomonidan beriladi.

³⁷ I.A.Karimov "Uzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida." T.: Uzbekistan, 1995, 236-b.

**Yunosobod tumani buyicha 2011-2013 yillarda sog'likni saqlash sohasidagi
tadbirlarni moliyalashtirishga qilingan xarajatlar tarkibi³⁸**

mln.sumda

Xarajat turlari	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Jami	10 044 455,0	14 008 716,3	16 080 566,4
shu jumladan			
Ish haqi	51864,2	71640,6	95282,1
O'tkazilgan ish haqi	12200,9	17319,2	23034,6
Kantselyariya va xo'jalik xarajatlari	160,9	217,4	226,1
Xizmat safarlari va xizmat yuzasidan ko'chishlar	64,9	66,6	69,2
O'quv xarajatlari	0,0	0,0	0,0
Stipendiyalar	0,0	0,0	0,0
Ovqatlanish uchun xarajatlar	1160,1	1258,6	1384,4
Dori-darmon va bog'lovchilar materiallari, sotib olish xarajati	1587,3	2062,8	2145,3
Asbob uskunalar va buyumlar sotib olish xarajatlari	450,4	427,2	106,8
Yumshoq jihozlar va maxsus kiyimlar sotib olish	110,8	88,7	22,2
Bino va inshootlarni kapital ta'mirlash xarajatlari	562,5	419,2	104,8
Boshqa har xil sarf-xarajatlar (jamg'arma)	5831,5	6912,4	7364,7

Hozirgi kunda ish haqini belgilashning ushbu usuli va boshqa byudjet tashkilotlarida bulgani kabi 15 foizli modqiy ragbatlantirish foidining haqi fondiga nisbatan rejalashtirilishi, sogliqni saqlash xodimlarini ish xaqi mikdorini, ularning mexratlarining natijasi bilan bogliqligini yanada oshirdi. hozirgi kunda sog'likni saqlash boshliqlariga xarajatlarni axrli soniga nisbatan rejalashtirishga utilishi munosabati bilan barcha, shu jumldan ish xaki xarajatlarini mikdorini xam mustakil belgilash xukuki

³⁸ Yunusobod tuman moliya bo'limi ma'lumotlari asosida

berilgan. Bu albatta sorlikni saqlash xarajatlarini samaradorligini oshirishga uzining ijobiy ta'siriga ega.

2012 yilda sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish borasidagi ishlar izchil va tizimli asosda davom ettirildi.

Davolash-profilaktika muassasalarini rekonstruktsiya qilish, ularni zamonaviy laboratoriya, diagnostika va davolash jihozlari bilan ta'minlash uchun qiymati qariyb 137 milliard so'mlik byudjet mablag'lari hamda 136 million dollarlik xorijiy imtiyozli kredit va grantlar yo'naltirildi.

Umuman olganda, keyingi o'n yil mobaynida sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan byudjet mablag'lari hamda imtiyozli kredit va grantlar 750 million AQSh dollaridan ziyodni tashkil etdi.

Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish yakunlari ishlab chiqarish kuchlarining quvvatiga va ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatlariga, texnika bilan jihozlash va ishlovchilarning kasbkor tayyorgarligiga bog'liq bo'lib qolmay, balki ko'p jihatdan demografiya jarayonlarining holatiga, aholi sog'lig'iga va sog'liqni saqlash darajasiga bog'liqdir. Bu xizmatni respublika tibbiyot sohasi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risidagi» Farmoni asosida hamda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to'grisida»gi qarori asosida juda katta tashkiliy va amaliy ishlar qilinmoqda. Ana shu dastur asosida qishloqda zamonaviy klinikalarni, tibbiy asbob-uskunalarni va apparatlar bilan jihozlanadigan hamda qishloq vrachlik punktlari, kunduzgi va xonadon shifoxonalari barpo etilmoqda.

Respublikada axoliga xizmat ko'rsatishning rivojlangan tizimi mavjud bo'lib, u umum davolash va tor ixtisosli tibbiy xizmat har xil turlaridan keng foydalanish imkonini beradi. O'zbekistonda bir mingdan ortiq kasalxona, uch mingdan ziyod vrachlik punktlari, ambulatoriya-poliklinika muassasasi bor, qishloq vrachlik punktlarining keng tarmog'i tashkil etilgan

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishdagi muammolar va ushbu soha xarajatlaridan oqilona foydalanishni takomillashtirish yo'llarini atroflicha ko'rib chiqamiz.

II bob bo'yicha umumiy xulosalar

Davlatning ko'p sonli funktsiyalari ichidan eng asosiylaridan biri-davlatning ijtimoiy siyosat funksiyasidir. Davlatning ijtimoiy siyosati deganda, biz aholining ijtimoiy himoya qilish tizimini bajarish uchun aholini barqaror va yuqori turmush darajasini yaratish uchun davlat tomonidan olib boriladigan chora-tadbirlarning yig'indisini tushunamiz. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, davlatning ijtimoiy siyosati har xil davrlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va shu siyosatning natijalari ham har xil bo'lgan. Lekin ijtimoiy siyosatning xususiyatlariga qaramasdan biz eng asosiy belgilovchi yo'nalishlarni ajratishimiz mumkin. Bu quyidagilar bilan bog'liq:

1. Moddiy va ma'naviy boyliklarning taqsimlanishi shu maqsadda olib borilishi kerak, u jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlasin.

2. Demografik siyosatni shunday olib borish kerakki, natijada mehnat resurslaridan ratsional foydalanish mumkin bo'lsin.

3. Jamiyatning ratsional (unumli) ijtimoiy tarkibini tuzish uchun davlatning ijtimoiy yo'nalishining asosiy vazifasi bo'lib har xil manbalar orqali aholi daromadlarini tashkil etish hisoblanadi.

Ular quyidagi yo'nalishlar orqali tashkil etiladi:

- * mehnatga to'lovlar orqali:
- * ijtimoiy iste'mol fondlar orqali:
- * shaxsiy mulkchilik orqali:
- * korxonalarning daromadlari orqali:

Aholi daromadlarining bir qismi mehnat sifati bilan bog'liq bo'lsa, yana bir qismi mehnat sifatiga bog'liq bo'lmaydi.

Davlatning ijtimoiy siyosatini muhim yo'nalishlaridan biri – davlatning ijtimoiy tadbirlari majmuini aniqlash, ularni tizimlashtirish va turkumlashtirishdir. Davlat ijtimoiy siyosatining tizimlashtirishning birinchi bosqichi tegishli tadbirlarning tizimli kategoriyalarga guruhlashtirish, ularni tartiblashtirishdan iboratki, bu holat davlat ijtimoiy siyosatining fundamental tavsifini aniqlashga imkon beradi. Bunday guruhlashtirishlar qator mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Davlatning ijtimoiy siyosati tadbirlarini guruhlashtirish va tahlil etish uchun qo'llaniladigan quyidagi to'rt asosiy mezonni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan mexanizmlar xususiyati;
- ijtimoiy siyosatning ta'sir etuvchi sohalari;
- ijtimoiy xizmatlardan foydalanuvchilar ;ijtimoiy siyosat
- ko'zlagan maqsadlar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadli yo'nalishlaridan biri – aholining yuksak turmush darajasini ta'minlashdan iborat. Shunga ko'ra, 2012 yilda aholi bandligini oshirish, xalqimiz turmush darajasini bosqichma-bosqich yuksaltirish yo'lida sezilarli qadamlar qo'yildi.

Aholining turmush darajasi uning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi orqali namoyon bo'ladi.

Har yili byudjetning salmoqli qismi ijtimoiy madaniy tadbirlarni moliyalashtirishga va aholini ijtimoiy himoya qilishga safarbar etiladi. Bu mablag'lar davlatga:

- xalq ta'limi sohasini rivojlantirish;
- fan va madaniyatni rivojlantirish;
- aholining tibbiyot xizmatlariga bo'lgan minimal ehtiyojlarini qondirish;
- aholini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish;
- ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish imkonini beradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan sari maxalliy byudjetlar orqali ijtimoiy cohalarni moliyalashtirishning roli oshib bormokda. Hozirgi paytda maxalliy byudjetdan ajratilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish, byudjetdan tashkdri manbalarni, ijtimoiy soxdning uzi ishlab tonayotgan mablag'larini, fuqarolarning pul daromadlarini faolroq jalb etish vazifasi oldingi uringa kuyildi. Ijtimoiy sohaning tarkibini qayta qurishni jadallashtirishga, uning qisman o'zini-o'zi mablag' bilai ta'minlashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan bir kator chora-tadbirlar ko'rildi. Shu bilan birga fuqarolarning ta'lim olish, salomatligini muxrfaza qilish, jismoniy va rivojlanish borasidagi konstitutsiyaviy kafolatlarini ijtimoiy-madaniy soha muassasalari xizmatidan erkin foydalanishga qaratilgan yo'li saqlab qolindi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BYUDJETLARNING DAVLAT IJTIMOIIY SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH YO'LLARI

3.1. Ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda mahalliy byudjetlarni ahamiyatini oshirishning xorij tajribasi

Bizning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'limiz respublikaning o'ziga xos turmush tarzini, shart-sharoitlari va xususiyatlarini, xalq ananalari va urf-odatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslangan ijtimoiy sohaning roli, mohiyati va o'tish davrida O'zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirishi tahlili, sohani tarmoqlariga xos bir necha xususiyatlari berilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishishga chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir.

Bugungi kunda, global jahon iqtisodiyotida davom etayotgan, jiddiy muammolar sharoitida mamlakatning byudjet-solik siyosatini samarali tashkil etish buyicha bir kator chora-tadbirlar amalga oshirilmokda.

Mahalliy byudjetlarning davlat byudjeti tizimidagi o'rni mahalliy byudjetlar daromadlarini tashkil etish hamda uning tarkibini belgilashda moliyaviy asos hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan yana biri - bu joylarda aholining iqtisodiy aktivligini oshirishga imkoniyatlar yaratish, shuningdek jismoniy shaxslarni tadbirkorlik faoliyatidan olayottan daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirib borish bilan bog'liqdir. Jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadini soliqqa tortish stavkalari mahalliy hokimiyatlar tomonidan mustaqil o'rnatiladi. Bunda eng avvalambor stavka o'rnatishda barcha yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun teng sharoit yaratish, daromadlarni to'lik soliqqa tortilishini ta'minlash zarurdir. Shuningdek, ushbu soliq stavkalarini inflyatsiya darajasiga karab o'zgartirib borish maqsadga muvofiqdir.

Prezidentimizning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarida mamlakatimizda mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirish bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar haqida alohida to'xtalib o'tdilar.

Jamiyat a'zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog'lig'ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qulga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish xech qaerda engil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan xar bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubxasiz samarali foydalaniladi. Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan xolda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-xuquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir.

O'zbekiston davlatchilikning mustaqil moliya, kredit, sug'urta va boshqa sohalarni shakllantirish, ularni xalqoro xuquqiy normalar asosida rivojlanishini ta'minlash maqsadida rivojlangan mamlakatlarning moliya sohasi tajribalaridan foydalanib, milliy moliya tizimida o'zi uchun maqbul bo'lgan jihatlarini qo'llab kelmoqda. Ayniqsa Davlat byudjeti xarajatlarida mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan ijtimoiy soha xarajatlari salmog'i yuqori bo'lgan Respublikamiz, boshqa rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy sohani

moliyalashtirish va shu sohaga yukori byudjetdan mablag' ajratish tajribalarini o'rganish lozim deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy sohani mablag' bilan ta'minlash qator rivojlangan mamlakatlarda ham yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, ijtimoiy soha xarajatlarini davlat xarajatlaridagi xissasi bundan dalolat beradi:

- Shvetsiya - 64,6 %
- Finlandiya – 63,5 %
- Germaniya – 74,9 %
- Frantsiya – 72,5 %
- Avstriya – 77,8%
- Shveytsariya – 75,2 %

Bu mamlakatlarda ijtimoiy sohani mablag' bilan ta'minlashning davlat tizimi kuchli rivojlangan. Bu tizim axoli keng ommasi ko'plab ijtimoiy ne'matlardan baxramand bo'lishini kafolatlaydi, nodavlat ijtimoiy fondlar bilan buni ta'minlab bo'lmaydi. Demak rivojlangan mamlakatlarda xam ijtimoiy sohani moliyalashtirish davlatning moliyaviy faoliyatiga kiradi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy soha xarajatlari davlatning asosiy moliyaviy faoliyati hisoblanib, ular bu moliyaviy faoliyatni mahalliy byudjetlar tomonidan amalga oshiradi.

Xududiy byudjetlar xarajatlarida bosh yo'nalish ijtimoiy madaniy ob'ektlarga sariflanadigan mablag'lardan iborat bo'ladi. Bu yo'nalishda birinchi navbatdagi xarajatlar boshlang'ich va o'rta maktablar uchun xarajatlar hisoblanadi. Germaniyada bu xarajatlar mahalliy byujet xarajatlarining 1/ 4 qsmi, Yaponiya va Frantsiyada 1/3 qsmidan oshig'ini, Buyuk Britaniya va AQSh byudjetlarida xarajatlarning 40 foizidan oshig'ini tashkil etadi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) mamlakatlarinig deyarli hammasida ta'lim xarajatlari milliy farovonlik xarajatlariga nisbatan ozroq ortgan. Frantsiya, Meksika, Norvegiya, Ispaniya va Shveytsariyada ta'lim muassasalariga davlat tomonidan qilinadigan xarajatlar Yalpi milliy maxsulot (YaMM) ga nisbatan foiz hisobida 2000-2010 yillar moboynda 0,5 foizdan 1,4 foizgacha o'sdi.

Meksikada, bu o'sish eng yuqori, ya'ni 2000 yildagi 3,2 foizdan 2010 yilda 4,6 foizgacha bo'lib, Niderlandiya va Buyuk Britaniyadagi darajaga etdi. Italiya va Turkiyada esa aksincha, bunday xarajatlar keskin kmaydi.³⁹ Finlandiyada 2000 va 2010 yillar oralig'ida YaMMni qisqarishi bilan ta'lim xarajatlari ham kamaydi. Finlandiya ta'limiga davlat tomonidan qilinadigan xarajatlarni qarab chiqib, hozirgi vaqtda ta'limga 2000 yildagiga qaraganda milliy boylikning ko'proq qismini sariflamoqda. Italiya va Turkiyada esa natija boshqacha bo'lib, YaMMning ortishi bilan ta'lim xarajatlari kamaygan.

IXRT mamlakatlaridagi boshlang'ich va o'rta ta'limga talluqli YaMM foizi, umuman olganda yuqorida bayon etilgan xarajatlarning umumiy misoliga tegishlidir. IXRT mamlakatlarida boshlang'ich va o'rta uquv yurtlariga davlat tomonidan kilinadigan xarajatlar har xil bo'lib, masalan, Germaniya, Gretsiya, Yaponiya, Finlandiya, Koreya va Turkiyada 3 foiz yoki undan kamroqni, Kanada, Daaniya, Finlandiya, Frantsiya, Lyuksenburg, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya va Shveytsariyada 4 foiz va undan ortiqni tashkil etadi. Ushbu umumiy misoldan chetlanishlarni ko'p jihatdan demografik omillar, boshlang'ich va o'rta o'quv yurtlariga o'kishga kirish koeffitsientlari o'rtasidagi farq hamda o'quv jarayoninig tashkil etilishi o'rtasidagi farq bilan tushuntirish mumkin.

Asosan, boshlang'ich va o'rta ta'lim xarajatlarining katta qismi davlat manbalaridan qilinadi. IHRT mamlakatlarining 19 tasida, masalan, Germaniya, Meksika, va Koreyada o'quv yurtlariga qilinadigan xarajatlarning 15 foizidan ortig'ini xususiy sektor o'z zimmasiga olgan. Avstriya, Daniya, Italiya va Shvetsiyada esa ta'lim muassasalariga xususiy sektordan pul o'tkazish hollarini deyarli uchratmaysiz (umumiy xarajatlarning atiga 2 foizi va bundan ham kami xususiy sektor xissasiga to'g'ri keladi).

Ko'pgina mamlakatlardagi yoshlar soni boshlang'ich ta'lim va o'qishga bo'lgan potentsial talabni belgilab beradi. g'shlar soni qancha ko'p bo'lsa, ta'lim sohasidagi xizmatlarga bo'lgan potentsial extiyoj shuncha katta bo'ladi. Farovonlik darajasi o'xshash bo'lgan mamlakatlar o'rtasida yoshlar soni nisbatan ko'proq

³⁹ Morifni moliyalashtirish buyicha semenar materiallari. Toshkent- 2010 yil fevral

bo'lgan mamlakatlar har bir yoshga boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi sifatli olish imkoniyatini yaratib berish uchun o'z YaMMning ko'proq foizini sarflashi kerak bo'ladi. Aksincha, agar yoshlar soni kamroq bo'lsa, bu mamlakat aynan o'sha natijalarga erishish uchun ta'limga o'z boyligining kamroq qismini ishlatishi lozim bo'ladi. IHRT mamlakatlari ichida 5 dan 39 yoshgacha bo'lgan axoli soni Germaniyada va Shveytsariyada 31 foizni, Turkiya va Meksikada esa 50 foizdan ortiqni tashkil etadi.

Har bir mamlakatda byudjet orqali baravarlash o'ziga hos xususiyatga ega. Masalan, AQShda bu maqsad uchun mablag' o'tkazishdan foydalaniladi, Rossiya Federatsiyasida soliqlarni kamaytirish ustun quyiladi, Kanadada esa mablag' o'tkazish va soliqlarni kamaytirish taxminan teng ulushni tashkil etadi.⁴⁰

Federal markaz viloyat va o'lkalarga ayniqsa sog'liqni saqlash va ta'lim, ijtimoiy yordam hamda jamoat xizmatlari sohalarida katta yordam ko'rsatadi. Kanadaliklarning fikricha, bu sohalar jamiyat uchun juda muhim hisoblanadi. Viloyat va o'lkalarga ko'rsatiladigan federal yordam kanadaliklarning jipslashuviga hamma narsadan ko'proq ko'mak beradi. Bu yordam keyingi o'n yil ichida sog'liqni saqlash davlat tizimini, milliy kollej va universitetlar tizimini yaratish hamda qullab quvatlashning asosiy vositasi bo'ldi.

1999 yildan boshlab federal yordam ilk bor besh yillik reja asosida ko'rsatilmoqda, bu esa viloyat va o'lkalarda moliyaviy rejalashtirishni ancha yaxshilashga imkon berayotir.

1998 yilda federal mablag'lari Kanada viloyatlari va o'lkalarining byudjetlarida daromadlarning 12 dan 42 gacha foizni tashkil etgan edi. Ularga beriladigan mablag'larning 90 foizidan ortig'i uchta asosiy federal dasturlar uchun o'tkaziladi.

Viloyat va o'lkalar o'zlarining soliq stavkalarini oshirishlari uchun federal xukumat o'zining soliq stavkalarini qisqartiradi. Masalan, 1997 yil federal xukumat viloyat va o'lkalarga shaxsiy daromad solig'ining 13,5 punktini hamda korporativ solig'ining 1 punktini kamaytirdi. Natijada, ilgari federal byudjetga

⁴⁰ Jurnal «Finansi» Moskva- 2010 yil 1- son.

o'tkaziladigan daromadlar viloyat va o'lkalar byudjetlarida to'plandi va bu mablag'larni asosan ta'lim va sog'likni saqlash xarajatlariga yqaltirish belgilab berildi.

Soliqlarning bunday kamaytirilishi 2008 yildagi 2-7 mlrd. Kanada dollaridan 2010yilda 13,5 mlrd. dollargacha oshdi.

Garchi mablag' o'tkazish va soliqlarni kamaytirish yo'li bilan federal yordam ko'rsatish tartibi har xil bo'lsada, yordamning ikkala turi ham federal markaz, viloyat va o'lkalar moliyasiga bir xil ta'sir ko'rsatadi.

Angliyada mahalliy byudjetlarga belgilangan davlat standartlaridan tashqari qo'shimcha xarajat qilish imkoniyati berilganligi va bu mablag'lar asosan ijtimoiy soha xarajatlariga yo'naltirilishi mahalliy byudjetlarni ijtimoiy sohalarni yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar birinchi navbatda ijtimoiy jihatdan himoyalangan aholi guruhlari uchun nihoyatda sezilarni bo'lgan og'ir jarayondir. Bu mamlakatlarda umuman moliya bozori, ayniqsa, bank tizimi, qimmatbaho qog'ozlar bozori rivojlanishiga katta e'tibor berilib, bunda bozor muammolarini hal qilish tizimida nafaqa islohoti deyarli oxirgi o'rinda turadi. Mazkur masalaning etarlicha o'rganilmaganligi natijasida uning bozor qayta qurilishlari tezligi va barqarorligiga ta'siri etarlicha o'rganilmaydi.

Ko'pgina davlatlarning amaldagi nafaqa tizimi o'z-o'zini moliyalashdan uzoq bo'lib, davlat byudjeti zimmasiga tushadigan og'ir yukdan iboratdir. Nafaqa islohotlari o'tkazishning zarur ekanligini ushbu vaziyatda quyidagi omillar tasdiqlaydi. MDH mamlakatlarida amaldagi nafaqa ta'minoti tizimi saqlab qolinadigan bo'lsa, bo'lg'usi ming yillikning 20 yillari o'rtasiga kelib, nafaqa fondi muammosi barqaror taqchilligi yuzaga kelishi muqarrar. Masalan, Polshada nafaqa ta'minoti YaIM ning 15 foizini (O'zbekistonda bu ko'rsatkich 0,7 foizini) tashkil etadi. Bu - Evropadagi davlat nafaqalarining eng yuqori darajasidir. Kelgusida sotsializmdan keyingi rivojlanishni boshidan kechirayotgan mamlakatlarda nafaqa ta'minoti o'rtacha darajasiga nisbatan pasayib boradi,

(nafaqaxo'rlarning hozirgi yashash darajasi - 110 foizdan 80 foizgacha kamayadi) va o'rtacha statistika maoshning hozirgi 33-35 foiziga nisbatan bor-yo'g'i 20-25 foizini tashkil etadi.

Yuzaga kelgan bo'nday vaziyatda nafaqa ta'minotini isloh qilish iqtisodiy islohotlar umumiy jarayoni bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolarni hal qilish lozim. Ularning ichida 3 ta asosiy muammoni:

- hozirgi nafaqaxo'rlar turmush darajasining pasayishi;

- nafaqa ta'minoti darajasining nafaqaxo'r mehnati hissasi miqdoridan ajratilganligi;

- nafaqa ta'minoti moliyaviy tizim muvozanati buzilganligini ajratish mumkin bo'lib, u muammolarning hal qilinishini nafaqa tizimini isloh qilish yo'llarining maqsadga muvofiqligi mezonlari, deb hisoblash mumkin.

Hozirda deyarli barcha nafaqa ta'minoti tizimi shunday ahvolga tushib qolganki, jamg'arish tizimi deb atalgan tizim bilan nafaqa mablag'lari taqsimlanishining davlat mehanizmidan birini tanlashga to'g'ri kelib qoladi.

Jahonda tarkib topgan shart-sharoitlar: -keksayib borayotgan aholining ko'payib borishi; -mehnatga qobiliyatli kishilar ulushining kamayib borishi; -nogironlar va nafaqaxo'rlarning katta miqdorda bo'lishi, yuqori darajadagi ishsizlikning va o'rtacha nafaqa darajasining nisbatan pastligi - bularning hammasi nafaqa tizimi davlat taqsimotini samarasiz qilib qo'yadi.

Yuqorida sanab o'tilgan jarayonlarning chuqurligi islohotlar bosqichini bosib o'tib, ijobiy natijalarga erishgan davlatlar tajribasiga murojat qilish zaruratini ko'rsatadi.

Jahon tajribasida xususiy jamg'armalarining ikkita: fuqarolarning o'z xoxishlari bilan va majburiy ravishda ishtirok etishlari nazarda tutilgan turlari mavjud. Ishtirok etish majburiy bo'lgan jamg'armalar davlatning nafaqa dasturlarini amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ishtirok etish xoxishiga ko'ra bo'lgan jamg'armalar esa ishchilarni qo'shimcha nafaqa bilan ta'minlash maqsadida tashkil qilinadi. Har ikkala turdagi jamg'armalar ham faqat jamg'arishga asoslangan nafaqa tizimi asosida tashkil qilinadi va nafaqalarni

to'lash ishchining o'z hisob raqamiga to'plangan mablag'i asosida amalga oshiriladi.

Xususiy nafaqa jamg'armalari birinchi bo'lib /arbiy Evropa va AQSh davlatlarida XX asrning 50 yillarida vujudga keldi. Ular fuqarolarning ixtiyoriy ishtiroki asosida xususiy kompaniyalar tomonidan tashkil etildi va boshqarildi. Hozirgi kunda, bunday jamg'armalar AQSh va Germaniyada keng yo'lga qo'yilmoqda.

Iqtisodiyotning yangi modeliga o'tish sharoitida nafaqa islohotini o'tkazgan eng birinchi davlat Chili bo'ldi. 1991 yili amalga oshirilgan Chili nafaqa islohoti Lotin Amerikasi, shuningdek, Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari uchun ham e'tiborga loyiqdir. Chili tajribasini Argentina, Peru, Kolumbiya va Meksika, shuningdek, keyingi rivojlanishni boshidan kechirayotgan ayrim mamlakatlar - Xorvatiya va Latviyada ham qo'llandi. Chili ko'pgina mamlakatlar uchun namuna bo'lib qoldi va uning tajribasini o'rganish hamkorlik uchun qiziqarlidir.

Chili islohotining mohiyati taqsimot tizimidan jamg'arishga o'tish, davlat nafaqa ta'minoti ulushini ko'p darajada qisqartirish va xususiy nafaqa fondlarining yuzaga kelishidan iborat bo'ldi. Davlat nafaqa sug'urta tizimi faqat dastlabki vaqtda samarali bo'ldi. Odatdagidek, nafaqaxo'rlarning dastlabki avlodi uchun birmuncha qulaylik yaratildi, ular nafaqa tizimiga kelib tushadigan katta miqdordagi qayta taqsimlash orqali mablag' bilan ta'minlanadi. Biroq katta miqdordagi to'lovlar, nafaqa tizimining uzoq muddatga rejalashtirilmaganligi, ijtimoiy masalalarning markazlashtirilgan tartibda hal qilinishi shunga olib keldiki, bu tizim doimiy (permanent) tanglik holatiga tushib qoladi. Nisbatan keyingi davr nafaqaxo'rlar avlodiga ko'rsatilgan omillardan tashqari, makroiqtisodiy omillar - YaIM, foiz miqdori, inflyatsiya, valyuta ayrboshlash kursining o'sish darajasi ham ta'sir ko'rsata boshladi.

Nafaqa fondalarini boshqarish davlatga tegishli bo'lib, u to'planayotgan badallarning xavfsizligini va eng kam to'lovlarning bir xil darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Dastlabki bosqichda ishonchlilik boshqa xususiyatlar ichida ustivor bo'lgan, shu munosabat bilan Chili hukumati tomonidan mablag'larni davlat qimmatbaho qog'ozlari va qat'iy daromad olishni taminlaydigan xususiy moliyaviy vositalar (shu jumladan, ipoteko obligatsiyalari)ga qo'yish uchun ruxsat berilgan.

Ammo 80-yillarning ikkinchi yarmida yondoshuvlar ancha erkinlashtirildi. Nafaqaxo'rlarning mablag'larini turli xil kooperativ qog'ozlarga qo'yish uchun fondlarga ruxsat berildi (2003 yili korxonalar obligatsiyalariga qo'yilmalar sarmoyalar umumiy summasining 68,1 foizigacha o'sdi), bu esa qo'yilmalarning ko'proq foyda keltirishini ta'minladi 1981 yildan 1995 yilgacha bo'lgan davrda kooperativ qog'ozlarning o'rtacha daromadliligi yiliga 12,5 foizini tashkil etdi, bu Chili nafaqa tizimi samarali ishining eng yaxshi dalilidir.

Yuqorida keltirilgan mamlakatlarda ijtimoiy soha xarajatlarini mahalliy byudjetlar xarajatlaridagi salmog'ini quyidagi 10-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

10-jadval

**O'rta Osiyo mamlakatlarida ijtimoiy soha xarajatlarini
moliyalashtirishning mahalliy byudjetlar umumiy xarajatidagi salmog'i⁴¹
2013 yil**

	Qirgiziston	O'zbekiston	Qozogiston
Xarajatlar	100	100	100
Shu jumladan			
Maorif	31,0	34,0	30,8
Sog'liqni saqlash	27,6	14,5	17,1
Madaniyat va sport	2,3	1,1	4,2

Ma'lumotdan ko'rinib turibdiki bu mamlakatlarda ijtimoiy soha xarajatlari mahalliy byudjet xarajatlarini katta qismini tashkil qilar ekan. Demak bunga ko'ra mahalliy xokimiyatlar moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish va ularni davlat

⁴¹ Ishmuxamedov A.E. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti t.: akademnashr, 2013, 236-b.

funktsiyalarini to'lakonli ya'ni me'yoriy xuquqiy qonun qoidalar asosida olib borishni taqazo etadi.

Markaziy Osiyo davlatlarida ham YaIMning katta qismi ijtimoiy soha xarajatlariga yo'naltirilmoqda va bu xarajatlarni moliyalashtirishni davlat umumiy xarajatlaridagi xissasi katta salmog'ga ega. Bu mamlakatlarda ijtimoiy sohani moliyalashtirish ham respublika va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladi. Bu xarajatlar mahalliy byudjet xarajatlarining katta qismini tashkil qiladi. Ijtimoiy soha xarajatlari O'zbekiston va Qozogistonda mahalliy byudjet xarajatlarining umumiy qismini 50 foizdan ortig'ini, Qirg'izistonda esa 80 foizgachani tashkil qiladi.

Mahalliy byudjetlarni ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi rolini oshirish bo'yicha chet el tajribasin o'rganish O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida muxim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu islohatlarning byudjet sohasidagi provard natijasi, mahalliy byudjetlarni byudjet jarayonlaridagi ahamiyatini oshirish orqali ijtimoiy sohalarni mablag' bilan ta'minlash va ularni rivojlantirishdan iborat.

3.2. Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy soha xarajatlaridan oqilona foydalanishini takomillashtirish yullari

Respublikamizda fuqarolik jamiyati shakllangan bugungi kunda, davlat miqyosida olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mahalliy byudjetdagi ijrosini samaradorligini o'rgangan holda, hududlarda davlat ijtimoiy siyosatini holati bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etish, ayniqsa, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijrosini ta'minlash xususida Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi: "Parlamentimiz va mahalliy vakillik organlari — Kengashlar oldida turgan ikkinchi g'oyat muhim vazifa — bu qabul qilingan qonunlarning ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni hukumat tomonidan markazda, hokimliklar tomonidan esa joylarda qanday

bajarilayotgani ustidan qat'iy parlament nazoratini, deputatlik nazoratini o'rnatishdan iboratdir⁴²” degan fikrlarini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy sohaga ajratilayogan sarf-xarajatlarning samaradorligini yanada oshirish talab etilmokda. Bunda asosiy e'tibor sotsial infrastrukturaga yo'naltirilayotgan xarajatlardan olingan natijaga qaratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'tgan sari yalpi ichki mahsulotda byudjet xarajatlari kisqarib borishi, shu bilan birga xorijiy investitsiyalarning xissasi oshib borishi lozim.

Shuni alohida aytib o'tish joizki, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov 2012 yil yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoi-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisida so'zlagan ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek “2012 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 11 milliard 700 million dollardan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2011 yilga nisbatan 14 foizga ko'p demakdir. Investitsiyalarning YaIM dagi ulushi 22,9 foizni tashkil etdi.

Umumiy investitsiyalar salmog'ida Noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi 29,4 foizni, jumladan uy-joy qurilishining ulushi 17,7 foizni, ta'lim sohasi - 2,1 foizni va sog'liqni saqlash sohasi - 2,4 foizni tashkil etdi”⁴³.

Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarni taqsimlash va aholiga etkazish asosan byudjet tizimi orqali amalga oshiradi. Ma'lumki, iste'mol fondlarining asosiy qismi byudjetlar orqali shakllantiriladi. Bunda xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy

⁴² Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir” ma'ruzasi. Xalq so'zi, 27 yanvar 2009 y.

⁴³ I.A. Karimov Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: “O'zbekiston”. 2013 y. 7.b.

ta'minot, uy-joy komunal xizmat sohasi bilan bog'liq asosiy xarajatlar mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora tadbirlarni moliyalashtirish asosan mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk yillaridanoq davlatimiz ijtimoiy ximoya va ijtimoiy taminotni o'zida mujassam etgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni maqsad qilib oldi. Buning malum sabablari bor albatta. Chunki iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida tovarlar va maxsulotlar (xizmatlar) ning narxi talab va taklifni hisobga olgan holda o'zgarib turadi va aholi iste'molini qondirish uchun aholining ushbu tovarlar (xizmatlar)ga ega bo'lish uchun imkoniyatlari cheklanib qolishi mumkin. Shuning uchun davlatimiz ijtimoiy siyosatini amalga oshirgan holda aholi iste'mol qobiliyatini hisobga olgan holda narxlarni stabillashtira boshladi. Ba'zi iste'mol tovarlari bo'yicha (masalan non mahsuloti buyicha) qat'iy narx belgilab axolining turmush-tarzini pasayishini qaysidir manoda oldini oldi. Bundan tashqari, mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganlarni ximoyalash, mexnat qilish yoshiga etmaganlarni qo'llab quvvatlash zarur edi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirishga va aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu chora-tadbirlarning hayotga tadbiiq etilishida davlat byudjetining ijtimoiy funktsiyalari ayniqsa ravshanroq namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda ham aynan shu ijtimoiy siyosatning maqsadi va vazifalari o'zgartirilmadi, aksincha davlat ijtimoiy siyosatining ko'lamini va uning usullari yanada takomillashib bormoqda.

Bozor iqtisodiyotining talabi, tabiati endi atrofga boshqacha qarash lozimligini taqozo etadi. 1999 yil 3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori qabul qilindi. Unda 2000 yil 1 yanvaridan

boshlab byudjet tashkilotlari harajatlarini mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibi joriy etildi. Xo'sh, byudjet tashkilotlari harajatlarini mablag' bilan ta'minlashni yangi tartibi nima maqsadda tadbiq etildi? Qarorda ochiq-oydin ko'rsatilganideq ushbu yangilik joriy qilingandan boshlab, byudjet tashkilotlari rahbarlarining mablag'lardan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mustaqilligi kengaydi, ma'suliyati oshdi. Byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarni ta'minlash mexanizmi soddalashtirildi va mablag'lardan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maksadida mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun imkoniyat yaratildi, hamda xodimlar mehnati rag'bat topishi va kadrlarning muqim o'rnashib qolishiga sharoit yaratildi.

Avvalgi byudjet muassaslarini moliyalashtirish tartibiga ko'ra xisobot davrida byudjet tashkilotlarining foydalanilmagan mablag'lari byudjetga qaytarib olinar edi. Natijada byudjet tashkilotlarining mablag'lardan samarali foydalanish manfaati yo'q, edi. Yangi tartibga binoan hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida byudjet tashkilotlarining hisob-varaqalarida tejab qolingani, ya'ni foydalanilmagan byudjet mablag'lari (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun iazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno) olib qo'yilmaydi, balki byudjet tashkilotini rivojlantirish maxsus jamg'armasiga o'tkaziladi va belgilangan tartibda sarflanadi.

Byudjet tashkiloti qo'shimcha daromad yaratish, ya'ni tashkilotni rivojlantirish jamg'armasiga ega bo'lishi mumkinmi? Albatta. Bozor munosabatlari byudjet tashkilotlarida kattagina mablag' jamg'arish imkoniyatini yaratadi. Bu jamg'arma tarkibiga yuqorida aytilganidek tejab qolingani byudjet mablag'i, ayni paytda tashkilotlar faoliyat turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar, vaqtincha foydalanilmagan binolar, inshootlarni ijaraga berishdan olingan daromadlar, yuridik va jismoniy shaxslardan berilayotgan homiylik (beg'araz) yordami xisobiga shakllantiriladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi eng asosiy tamoyillaridan biri bu aholini ijtimoiy himoya

qilishdir. Aholining eng himoyasiz va muhtoj tabaqalarini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash esa, o'z navbatida, islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning garovidir»⁴⁴.

Samarali ijtimoiy siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tarkibiy o'zgarishlar, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari bilan uyg'unlashtirib amalga oshirib borgan taqdirdagina ijtimoiy soxaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish mumkin. Pirovard maqsad esa O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millionlab oilalarning munosib turmush kechirishi uchun sharoit vujudga keltirishdan iboratdir. Ayni mana shu narsa oqibat natijada davlatning qudrati va boyligini uning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, bozor mexanizmini joriy etishdan avval insonlarni ijtimoiy ximoya qilish tadbirlari amalga oshirilmog'i lozim. Davlat o'z aholisini himoya qila olgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi. Davlat kishilarga ayniqsa yordamga muhtoj bo'lganlarga, ijtimoiy nochor qatlamlarga, etimlar, bolalar, nafaqaxo'r va nogironlar, yolg'iz onalar, ko'p bolali va kam ta'minlangan, yosh, voyaga etmagan bolali oilalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish kerak. Bu borada ijtimoiy himoyalash aniq maqsadni ko'zlagan va o'z egasiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish ijtimoiy muhofaza tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolmog'i lozim. Bundan tashqari nafaqalar tayinlash va to'lashda boqimandalikka yo'l qo'ymaslik zarur. Ushbu yuqoridagilarga amal qilgan holda mahalliy byudjet xarajatlaridan samarali va oqilona foydalanishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlat byudjetining hamda mahalliy byudjetlarning mamlakat, jumladan xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada ortib bormoqda. Shu narsani ta'kidlashimiz zarurki, mahalliy byudjetlarning xarajatlari tarkibi bevosita mahalliy xokimiyat organlarining xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi vazifalari hamda davlatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish masalalarini amalga oshirish bilan belgilanadi. Mahalliy byudjetlar xududlarda ijtimoiy infratuzilmani saqlash va rivojlantirishda, milliy daromadni

⁴⁴ I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», Toshkent, «O'zbekiston», 1995 y., 208-bet.

taqsimlanishida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida hamda xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi.

Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi rolini oshirish bo'yicha chet el tajribasini o'rganish O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki bu islohotlarning byudjet sohasidagi pirovard natijasi, mahalliy byudjetlarni byudjet jarayonlaridagi axamiyatini oshirish orqali ijtimoiy sohalarni mablag' bilan ta'minlash va ularni rivojlantirishdan iboratdir.

Aksariyat ijtimoiy xarajatlarning mahalliy byudjetlarga ular daromad bazasini tegishli tarzda oshirmay turib birlashtirilishi byudjet ssudalariga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga olib keladiki, bu holat ularni o'z vaqtida qaytarilishidagi muammoning mavjudligi va keskinlashuvi tufayli amaliy jihatdan nomaqbuldir.

Respublikamizda ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishda davlatning rolini saqlanishiga intilish kerak chunki bu bevosita mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga va kam daromadli aholini ijtimoiy-madaniy soxa xizmatlari bilan ta'minlashga, umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan ba'zi tadbirlarni samarali hal etishga imkon beradi. Masalan, turli kasalliklarni tarqalishini oldini olish va ularga qarshi kurashish va boshqa kabilardir. O'zbekistonda ham bu sohalarni rivojlantirishning yo'nalishlari belgilanmoqda va amalga oshirilmokda.

III bob bo'yicha umumiy xulosalar

Bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishishga chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir.

Jamiyat a'zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog'lig'ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan

daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qulga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish xech qaerda engil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan xar bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubxasiz samarali foydalaniladi. Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-xuquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir.

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora tadbirlarni moliyalashtirish asosan mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk yillaridanoq davlatimiz ijtimoiy ximoya va ijtimoiy taminotni o'zida mujassam etgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni maqsad qilib oldi. Buning malum sabablari bor albatta. Chunki iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida tovarlar va maxsulotlar (xizmatlar) ning narxi talab va taklifni hisobga olgan holda o'zgarib turadi va aholi iste'molini qondirish uchun aholining ushbu tovarlar (xizmatlar)ga ega bo'lish uchun imkoniyatlari cheklanib qolishi mumkin. Shuning uchun davlatimiz ijtimoiy siyosatini amalga oshirgan holda aholi iste'mol qobiliyatini hisobga olgan holda narxlarni stabillashtira boshladi. Ba'zi iste'mol tovarlari bo'yicha (masalan non mahsuloti buyicha) qat'iy narx belgilab axolining turmush-tarzini pasayishini qaysidir manoda oldini oldi. Bundan tashqari, mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganlarni ximoyalash, mexnat qilish yoshiga etmaganlarni qo'llab quvvatlash zarur

edi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirishga va aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu chora-tadbirlarning hayotga tadbiq etilishida davlat byudjetining ijtimoiy funktsiyalari ayniqsa ravshanroq namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda ham aynan shu ijtimoiy siyosatning maqsadi va vazifalari o'zgartirilmadi, aksincha davlat ijtimoiy siyosatining ko'lamini va uning usullari yanada takomillashib bormoqda.

Mahalliy byudjetlarni ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi rolini oshirish bo'yicha chet el tajribasini o'rganish O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida muxim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu islohatlarning byudjet sohasidagi proverd natijasi, mahalliy byudjetlarni byudjet jarayonlaridagi ahamiyatini oshirish orqali ijtimoiy sohalarni mablag' bilan ta'minlash va ularni rivojlantirishdan iborat.

XULOSA

O'zbekiston tanlagan islohat yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti bozor mexanizmining samarali ishlashini, aholi turmushining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi, kuchli ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «Bozor munosabatlariga o'tishda O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning xalqi manfaatlariga nihoyatda mos keladigan ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiyotdir»⁴⁵.

Xalq manfaatlariga mos bo'lib tushadigan mustaqil iqtisodiy siyosat har qanday davlatning erkin rivojlanishida ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan bozor iqtisodiyotini qurish davlat siyosatining o'zagini tashkil etadi. Har bir insonning yoki biror ijtimoiy guruhning, millatning ijtimoiy manfaatlarini doimo uning ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi jamiyat tizimining munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Shunday ekan, bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoyalash masalalari ham iqtisodiy, ham siyosiy nuqtai nazardan juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aholining kam ta'minlangan va kam himoyalangan qismiga - qariyalarga, nogironlarga, bolalarga, ayollarga ijtimoiy yordam berish va ularga yaxshi turmush sharoitini yaratish bozor iqtisodiga og'riqsiz o'tishga, fuqarolarda o'tqazilayotgan iqtisodiy islohotlarga bo'lgan ishonchlarini kuchaytirishga imkon beradi. Mavzuni atroflicha o'rganish natijasida aniqlangan muammolar va taxlillardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Maorif tashkilotlarida tashkil etilayotgan rivojlantirish fondining taqsimlanishi quyidagi tartibda amalga oshirilmokda, shakllangan mablag'ning:

15 foizgacha byudjet tashkiloti xodimlarini rag'batlantirishga;

⁴⁵I. A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlari.T.: O'zbekiston, 1993.4-b.

85 foizdan kam bo'lmagani byudjet tashkilotining moddiy texnika bazasini kengaytirishga. Bizning fikrimizcha, mazkur fondning taqsimlanishida, ishchi va xodimlarni rag'batlantirishda muayyan chegara qo'yilgan bo'lib, ushbu chegara ularning tashabbus ko'tarib ishlashi uchun qisman to'siq bo'lmoqda.

Bizning fikrimizcha, qo'shimcha topilgan mablag'larning taqsimlanish chegarasi 50 % / 50 % bo'lganda maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu o'z o'zida ishchi va xizmatchilarning tashabbus faoliyatini kengaytirib, ularning muqim ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratgan bo'lar edi.

2. 1999 yil 3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qaroriga binoan byudjet tashkilotlari muayyan faoliyat turi bo'yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishi mumkin, lekin iqtisodiyotda xarajatsiz xarakat natijasiz degan koida bor. Shuning uchun ham yuridik makomga ega bo'lgan byudjet muassasalarining tadbirkorlik faoliyatlari uchun bank tomonidan imtiyozli kreditlar va ma'lum muddatga soliq imtiyozlarini berilishi maqsadga muvofiqdir.

3. O'zbekiston Respublikasida, ishsizlik muammosining boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan foiz ko'rsatkichi past darajada bo'lsa-da, lekin uning ko'rsatkichi mehnatga layoqatli aholi o'rtasida bir oz yuqori bo'lib turibdi. Ishsizlik alomatlarining aksariyati qishloq joylardagi mehnatga layoqatli ayollar o'rtasida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jihatlarda uy bog'chalarini tajriba sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy bogchalarni hamda maktabdan tashkari muassasalarni ochilishini davlat qo'llab quvvatlashi lozim.

4. Hozirgi kunda ayrim byudjet muassasalarida byudjet mablag'larni maqsadsiz ravishda sarflash uchramoqda, ya'ni ajratilgan byudjet mablag'lariga bozor narxidan ancha kimmat, sifatsiz, jismoniy yoki ma'naviy eskirgan tovarlar sotib olinmokda. Ushbu protsessni doimiy nazorat qilish judda murakab. Shuning uchun viloyat, shaxar va tumanlarda byudjet muassasalari sotib oladigan tovar va maxsulotlar bo'yicha doimiy ravishda tenderlar o'tkazish lozim va ushbu tenderlar

natijasi bo'yicha sotib olingan tovar va maxsulotlarning narxi va sifati xakida matbuotda doimiy ravishda yoritilishi lozim.

5. Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan umumta'lim maktablariga byudjetdan asosiy normativlar belgilanadi. Har bir viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va aholi zichligidan kelib chiqib normativlarni muayyan koeffitsientlarga oshirish ko'zda tutilgan. Mazkur koeffitsientlarni kamida har uch moliya yilida qayta ko'rib chiqish lozim, chunki bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoiti va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari bunday o'zgarishlarni talab etmoqda.

6. Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishni kengaytirish va rag'batlantirish maqsadida, ularga faqat taqiqlanadigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish turlarini aniqlab berish zarur. Taqiqlanmagan tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni ularning o'zlari tanlasinlar. Shunday qilgan taqdirda, byudjet muassasalarining erkinligi ta'minlanishi bilan birga, ularning mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning yangi turlarini izlab topishga, kashf etishga imkoniyat yaratiladi.

7. Ta'lim sohasida byudjet mablag'larni yuqori byudjetdan quyi byudjetga ajratishda tegishli normativlar asos qilib olingan. Ya'ni viloyat, shchaxar, tumanlarning ijtimoiy-iqtisod axvolidan kelib chikgan holda normativlar muayyan koeffitsientlarga oshirish ko'zda tutilgan. Lekin bu holda mablag' ajratishda ko'pgina xollarda byudjet mablag'lari noreal taksimlanadi. Shuning uchun ta'lim tizimidagi muassasalarining binolari va ularning holati, kommunikatsiya, sinflar soni, jihozlanish darajasi va shunga uxshash mezonlardan kelib chiqqan holda byudjet muassasalari guruxlarga bo'linib ushbu xar bir gurux uchun alohida normativ bo'lishi kerak.

Yuqorida zikr etilgan fikrlarni amaliyotga tatbiq etish mahalliy byudjet mablag'laridan ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda oqilona foydalanish bilan birga, byudjet tashkilotlarini rivojlantirishni to'g'ri tashkil etishga imkoniyatlar yaratadi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014y. -40b.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692 B
3. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi". T.: "O'zbekiston" 2013 yil 26 dekabr. 2014 yil 1 yanvardan kuchga kirgan.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2270-sonli Qarori 2014 yil 4 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2099-sonli Qarori 2013 yil 25 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1887-sonli Qarori 2012 yil 25 dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1675-sonli qarori 2011 yil 30 dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1449-sonli qarori 2010 yil 24 dekabr.
10. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 19 iyuldagi 148-sonli qarori bilan Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini mablag bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 1999 yil 3 sentyabrda 414-son qarori

II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari

- 13.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi // Halq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
- 14.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56
- 15.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2005.-B. 528.
- 16.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2005. - B. 96.
- 17.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. -B. 48.
- 18.Karimov I.A. Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008. - B. 64.
- 19.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008.
- 20.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. —Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2000 - B. 352.
- 21.Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi 17.01.2015 yil
- 22.Karimov I.A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2014. www.uza.uz.
- 23.Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

- 24.Karimov I.A. “2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi.
- 25.Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi.
- 26.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “O’zbekiston” NMIU, 2010. -80 b.

III. Darslik va o’quv adabiyotlari:

- 27.Vahobov A., Jo’raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. -526 b.
- 28.Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. –T.: Sharq, 2003. -400 b.
- 29.Jo’raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish-ning samarali yo’llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y.
- 30.Jo’raev A., Safarov G’. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.
- 31.Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. -544 b.
- 32.Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.
- 33.Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnik dlya vuzov /Pod red. D.G.Chernika. M: Yunita-Dana, 2010. -345 s.
- 34.Finansi. /Pod red. L.A. Drobozinoy –M.: YuNITI, 2010. -350 s.
- 35.Jo’raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O’quv qo’llanma, –T.: “Norma”, 2009. –184 b.
- 36.Jo’raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O’quv qo’llanma. – T.: “O’qituvchi” nashriyoti, 2007. –232 b.
- 37.Toshmurodova B., Elmirzaev S. Korporativ soliq menejmenti. O’quv qo’llanma. –T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2010
- 38.Malikov T.S. Soliq yukining og’irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. –T.: 2006. —B. 32.
- 39.Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2003. -B. 148.

- 40.To'raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: "Akademiya", 2005. - B. 130
- 41.O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O'quv qo'llanma - T.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -B. 202.
- 42.Qurbonov Z.N. Soliq auditi.-T.: «Fan va texnologiyalar», 2007.-B. 120.
- 43.Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. - T.: "Akademiya". 2005. 123-bet
- 44.Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2008. -287b.
- 45.Vahobov A., Qosimova G., Jamolov Budjet-soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod va moliya, 2005.
- 46.Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.-104 b.
- 47.Moliyaviy nazorat: O'quv qo'llanma / Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. – Toshkent, 2013 – 382 bet.
- 48.Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma / T.: «infoCOM.UZ». 2009.
- 49.Kuchkarov D.J., Printsipi organizatsii kaznacheyskogo ispolneniya Gosudarstvennogo byudjeta Respubliki Uzbekistan. Uch.pos. - T.:Mir ekonomiki i prava. 2005.
- 50.Malikov T.S. Byudjet daromadlari va xarajatlari/ T.S. Malikov, N.X. Xaydarov. - Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. - 245 s
- 51.Malikov T.S. Davlat byudjeti/ T.S. Malikov, N.X. Xaydarov. - Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. - 84 s
- 52.Malikov T., Xaydarov N. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", TMI-2008. 98 bet
- 53.Malikov T., Vahobov D., Moliya: rasmlarda. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010, 660 b.
- 54.Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.
- 55.Nurmuxamedova B., Kabirova N. Finansi. Uchebnoe posobie. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2010. 276s.
- 56.Parigina V.A. Byudjetnaya sistema Rossii: Uchebnik/ V. A. Parigina. - Moskva:: Eksmo, 2006. - 752 s
- 57.Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. T.:Infocom. 2010.
- 58.Srojiddinova Z.X. Byudjetnaya sistema Respubliki Uzbekistan. Izdatelstvo «infoCOM.UZ». Tashkent-2010.
- 59.Srojiddinova Z.. Mejbyudjetnie otnosheniya. Izdatelstvo «infoCOM.UZ». Tashkent-2010.
- 60.Srojiddinova Z.. Byudjetlararo munosabatlar. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010
- 61.Fayzullaev Yo.Sh., Azizova I.A. "Byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish"

- T.: 2010 y. “infoCOM.UZ MChJ” nashriyoti
62. Haydarov M. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010.
 63. Xodjaev R., Egamberdiev A., Isaev O. Gosudarstvenniy byudjet. Uchebnoe posobie.- T.: “IQTISOD- MOLIYA”, 2008 g. 112 str.
 64. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarini rivojlantirishda byudjet siyosati / G.A. Kosimova. - T.: Toshkent moliya instituti, 2004. - 152s
 65. Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.
 66. Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008.
 67. Qosimova G.A. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash». O'quv qo'llanma. T.: “Fan va texnologiya” 2007.
 68. Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2008.
 69. Esmurzaev J.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida): i.f.n. ... diss. avtoreferati. - Toshkent, BMA, 2007. – 20 b.

IV. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

70. Boymurodov S. Soliq imtiyozlari va ularning soliq to'lovchilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2007 yil, №8
71. Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar. //Soliq to'lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.
72. O'rmonov J. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari. //Soliq siyosatini yanada takomillashtirish-printsipial muxim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi tezislar to'plami. -Toshkent, 2005. -B. 156-157.
73. O'rmonov J., Yu.Xodjaev. Soliq tizimini takomillashtirish-dagi ayrim masalalar. //O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini shakllantirish sharoitida byudjet-soliq siyosatining dolzarb masalalari. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007.-B. 81-82.
74. O'rmonov J. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik kayta jixozlashni soliqlar vositasida rag'batlantirish. //Soliq siyosatini yanada erkinlashtirish - eng muhim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007. - B. 20-21.
75. O'rmonov J. Soliq siyosati islohotlari taraqqiyot omili. //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislar to'plami. - Toshkent, 2008.

- B. 29-30.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

76. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2010 4.-№5.
77. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2011.-№10.
78. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№12.
79. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2013 yil. -T.:2013.-№9.
80. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2014 yil. -T.:2014.-№6.
81. O'zbekiston statistik axborotnomasi. – Toshkent. 2008 - 2012.

VI.Internet saytlari.

- 82.<http://www.press-service.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti
- 83.<http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
- 84.<http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
- 85.<http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
- 86.<http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti
- 87.<http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
- 88.<http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.
89. <http://www.tfi.uz> - Toshkent moliya instituti sayti.